

Samarqand Davlat Universiteti

Kasbiy ta'lim fakulteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrası

5110800 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

(bakalavriat) ta'lim yo'nalishi

**Umumta'lim maktablari tasviriy san’at darslarida  
“Mening qishlog'im” mavzusida rasm ishlash  
metodikasi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajaruvchi: Xushvaqtova Marg'uba

Ilmiy rahbar: o'qit. Sh. Oydinov

Samarqand-2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KASBIY TA'LIM FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANISLIK GRAFIKASI” KAFEDRASI

Xushvaqtova Marg’uba Salim qizi

QALAMTASVIRDA AVTOPORTRET ISHLASH VA UNI O’QITISH  
METODIKASI

(KHKlari tasviriy san’at darslarida)

5110800 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

(bakalavriat) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ish ko’rildi va himoya

qilishga ruxsat berildi

“Tasviriy san’at va muhandislik

grafikasi” kafedrası

mudiri, o’qituvchi

\_\_\_\_\_ Sh. Oydinov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_2016 y.

Ilmiy rahbar o’qituvchi

\_\_\_\_\_ Sh. B. Oydinov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2016 y.

Taqrizchilar: o’qituvchi.

\_\_\_\_\_ J. Rahmatov

Samarqand 1-son pedagogika

“Tasviriy san’at” kafedrası

mudiri: \_\_\_\_\_ A. Mustafoyev

Ushbu bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2016 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi  
\_\_\_\_\_ xulosasiga asosan \_\_\_\_\_ baholandi.

Ya DAK raisi: \_\_\_\_\_

A’zolari: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**SAMARQAND-2016**

## **Kirish**

**Mavzuning dolbzarbligi:** Har qanday san'at turi insonga o'z ta'sirini o'tkazib uning qarashini shakillantiradi. Tasviriy san'at insonning hayotidagi jasoratini, fikrini va ichki hissiyotlarini aks ettiradi. Ayni paytda tasviriy san'at asarlari kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasvir san'at asarlarini tomosha orqali, ularda ifodalangan go'zalikni ko'rish orqali o'z hayotlariga ana shunday go'zalikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarini ko'rib esa ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xati-xarakatlarni ko'rib, ulardan muayan xulosa chiqaradilar.

Ma'lumki, bugun O'zbekiston o'zining xalq ta'limi sohasida qabul qilgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi kabi me'yoriy hujjatlari asosida ta'limning yangi tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Kelajak yoshlarni komil, sog'lom, teran fikrli, dunyo qarashi keng, Vatanga, halqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo'lib yetishishida tasviriy san'at fanining ham o'z o'rnini bor. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'lim tarbiya jarayoniga berilayotgan e'tibor diqqatga sazavordir. Bo'lajak o'qituvchilar ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda bu imkoniyatlardan unumli foydalanmog'i kerak. Tabat ko'rinishlariga shaydo bo'lib undagi har bir o'simlik, giyoh tog'u – toshlar suvlar qiyg'os ochilgan gullar, me'moriy yodgorliklari, qo'yinki umuman olganda tabiatga, Vatanga, zaminga, borliqqa mehr – muhabbat uyg'otadigan tasviriy san'at janridan biri bu manzara janridir. Mustaqil O'zbekistonning porloq kelajagi yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashni talab etadi. Barkamol insonni

tarbiyalashda tasviriy san'at alohida ahamiyatga ega. Tasviriy san'at deganda go'zallikni his qilish, tasvirlash jarayonida go'zallikni yaratish, orastalik, kelajak yoshlarni didli qilib tarbiyalash tushiniladi. Rassom pedagoglar rasm chizishni o'rgatish jarayonida yoshlarga ilgari o'zlari payqamagan go'zalliklarni ko'ra bilishga shuningdek san'at asarlarini tushunish va badiiy tahlil qilish ko'nikmasi singdiriladi.

Rangtasvir-tasviriy san'atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi. Rangtasvirchi musavvirlar mato, qog'oz, karton, yog'och va shu kabi tekis yuzalarda olam go'zalligini ranglar jilosida aks ettiradilar. Har qanday san'at turi insonga o'z ta'sirini o'tkazib uning qarashini shakillantiradi. Tasviriy san'at insonning hayotidagi jasoratini, fikrini va ichki hissiyotlarini aks ettiradi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Umum ta'lim maktablari tasviriy san'atini o'qitish va uning metodikasi masalalari bilan ko'plab olimlar shug'ullanib kelishgan. Shulardan professor R.Xasanov, S.Bulatov, M.Nabiyev, B.Boymetov, dosentlar B.Oripov, A. Turdialiyev, B.Azimova, O. Hudayorova, X.Egamovlar tasviriy san'at ta'limining metodik yo'nalishini tadqiq qilganlar. Tasviriy san'at va amaliy san'at bilan ta'lim - tarbiya birligini yechimi bo'yicha ham ancha ishlar amalga oshirib borilgan. Kasb-hunar ta'limining tasviriy va amaliy san'at sohasiga oid masalalar bilan olimlardan B.Boymetov, A.Abdurasulov, N.Tolipov, B.Oripov, A.Turdialiyev, U. Nurtoyev kabilar metodika bo'yicha darsliklari va metodik ishlanmalar yaratdilar.

Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda moxirdirlar. Tasviriy san'atda tabiatni tasvirlash manzara janri deyiladi. Manzarachi musavvirlar o'z asarlarida ifodalagan obrazlar orqali tabiatni sevishga, e'zozlashga va bu go'zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara faqatgina tabiat go'zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g'oya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor – musavvir har doim tabiatni sinchikovlik bilan o'rganmog'i va tafakkurini o'stirib bormog'i zarur. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon

o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da baxor", Z.Inog'omovaning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Tyemurovning "Bibixonimda baxor", "Ulug'byek madrasasi" asarlari mualliflarga shuxrat keltirdi. Malakaviy bitiruv ishimizning amaliy qismida tabiat ko'rinishlaridan "Mening qishlog'im" rangtasvirini rangli bo'yoqlar yordamida tasvirlashga harakat qildik.

**Malakaviy bitiruv ishining maqsadi:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarning tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizishning samarali usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Tasviriy san'atning manzara janri haqida umumiy ma'lumotlar.
- Manzara janri haqida tushuncha va unda kompozitsiyaning tungan o'rni.
- Manzara janrida rasm ishlashda badiiy materiallardan foydalanish.
- Tasviriy san'at janrlarida ishlangan rangtasvir asarlaridan badiiy tahlil qilish.
- Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm chizish va uni o'qitishning shakl va usullari.
- "Mening qishlog'im" mavzusida rasm ishlashda xomaki rasm va rangli ranglavhalar ishlashning zaruriyati.
- Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlash metodikasi.

**Tadqiqot obyekti:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida mavzuli rasm chizish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atning mavzuli rasm chizish darslari.

**Tadqiqot metodlari:** Nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:**

- Tasviriy san'atning manzara janri haqida umumiy ma'lumotlar yo'ritib berilsa.
- Manzara janri haqida tushuncha va unda kompozitsiyaning tungan o'rni o'rganilsa .
- Manzara janrida rasm ishlashda badiiy materiallardan foydalanilsa.
- Tasviriy san'at janrlarida ishlangan rangtasvir asarlaridan badiiy tahlil qilinsa.
- Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm chizish va uni o'qitishning shakl va usullaridan foydalanilsa.
- «Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlashda xomaki rasm va rangli ranglovhalar ishlashning zaruriyati o'rganilsa.
- Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlash metodikasidan foydalanilsa .

**Tadqiqot yangiligi:** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida manzara janrida rasm chizish dars soatlarini takomillashtirish va yangi usullarda dars olib borish, dars ishlanmalari tayyorlanganligi va rasm kompozitsiyasining tasvirlanganligi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:**

- Tasviriy san'atning manzara janri haqida umumiy ma'lumotlar yoritib berilgani.
- Manzara janri haqida tushuncha va unda kompozitsiyaning tungan o'rni o'rganilgani.
- Manzara janrida rasm ishlashda badiiy materiallardan foydalanilgani.
- Tasviriy san'at janrlarida ishlangan rangtasvir asarlaridan badiiy tahlil qilingani.
- Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm chizish va uni o'qitishning shakl va usullaridan foydalanilgani.
- «Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlashda xomaki rasm va rangli ranglavhalar ishlashning zaruriyati o'rganilgani.

- Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlash metodikasidan foydalanilgani.

**Tuzilishi;** Kirish, ikki bob besh fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib 60 betni tashkil etadi.

## **I bob Tasviriy san'atning manzara janri haqida umumiy ma'lumotlar.**

### **1.1. Adabiyotlar tahlili**

1) 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

2) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 174 b. Prezidentimizning ushbu asarida ma'naviyat tushunchasi, insonning ichki dunyosi, bugungi kunda insonlarda ma'naviy mafkurani shakllantirish, Sharq mutafakirlarining ma'naviyatni shakllantirish borasidagi fikrlari, mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlar, oilaning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda oila, mahalla va maktabning ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shaxs shakllanishida ma'naviyatning o'rni ajdod va avlodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanish, xayotda o'z o'rnini topish, madaniyat va san'atning naqadar kerakligini o'qtirib o'tiladi.

3) I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 2000. 386 b. Prezidentimizning ushbu asarida "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'alarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar

4) M. Nabiyeu. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995. 22-b. Mazkur qo'llanma muallifning ko'p yillik pedagogik faoliyati hamda rangtasvir bo'yicha amaliy ish tajribalari asosida yozilgan. Qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda rangshunoslik fani asosida rangning fizik, kimyoviy,



psixofiziologik va estetik xususiyatlari yoritilgan. Ikkinchi qismida esa tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri – rangtasvir texnologiyasini bilish metodikasining nazariy va amaliy jixatlari bayon etilgan.

5) N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997. 53-b. Qo'llanmada tasviriy san'atning tur, janrlari va Ozbekiston hududida mavjud bo'lgan o'ziga xos tarixdan lavhalar hikoya qilinadi. Bir qator devoriy suratlar, haykallar kabi tasviriy san'at namunalari tahlil qilinib berilgan. Bundan tashqari talaygina rassomlarning ijodi, hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan tanishsa bo'ladi.

6) S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996. Qo'llanmada amaliy va tasviriy san'atning nodir turlari haqida hikoya qilinadi. San'atimiz jilolari – rasm chizish san'ati, haykaltaroshlik, metalga qayta ishlov berish – kandakorlik, naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, gilam to'qish kabi san'at turlari joy olgan.

7). R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009. 86 bet. Bu asarda tasviriy san'atning asosiy manbalari haqida gap boradi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi, turlari va janrlari to'g'risida atroflicha hikoya qilingan. Rassomlar va ularning asarlari tahlillari ham beriladi. Asarlarning rangli, rangsiz suratlari keltirib o'tilgan. Shuningdek grafika, rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik san'ati haqida fikrlarini bayon qiladi. Tasviriy san'at tarixiy taraqqiyoti to'g'risida ham to'xtalib sharq va g'arb uyg'onish davrini ba'tafsil yoritib beradi.

8). O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.4-98-betlar. O'zbekiston san'ati kitobi O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10-yilligiga bag'ishlanadi. Unda 1991-2010 yillardagi O'zbekiston san'atida erishilgan ulkan yutuqlar haqida hikoya qilinadi. Kitobning 1 bobda me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atga bag'ishlangan. Me'morchilik qismida O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi

faoliyati davomida qilingan milliy me'morchilik va shaharsozlik sohalaridagi yangi yutqlar haqida ma'lumotlar keng yoritilgan.

9) S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011. 154-b. O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. O'quv qo'llanma pedagogika kollejlarning maxsus o'quv fani — «Tasviriy san'at metodikasi» dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada «Tasviriy san'at metodikasi» fanining maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot bosqichi va metodlari, mashg'ulotlarning mazmuni va metodikasi, sinfdan tashqari ishlar mazmuni kabi masalalar o'z aksini topgan. Shuningdek, pedagogika kollejlari talabalari uchun tasviriy san'at metodikasi va dars turlari hamda uning mazmuni haqida ma'lumotlar, o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bayon etilgan.

10) B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musika nashriyoti", 2006. 28-b. Nizomiy nomidagi TDPU ning Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Qalamtasvir nomli darsligida tasviriy san'atning asosi hisoblangan qalamtasvir fani bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan. Xususan, kitobdan qalamtasvirning nazariy asoslari, tasviriy san'atda perspektiva, kompozitsiya qonunlari, chiziqli konstruktiv qurilish, yorug'-soya qonuniyatlari, odam bosh suyagi va muskullarining plastik anatomiyasi, badiiy ta'limda qalamchizgi bajarishning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar o'rin olgan. Darslikda berilgan vazifalar talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga usulida ishlab chiqilgan.

11) Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiatyurasi. T., "O'zbekiston", 2006. 25-b. Ushbu kitob-albomda mamlakatimizda miniatyura san'atining yuz yillardan so'ng tiklanishi, mustqillik yillaridagi rivoji, bu borada erishilgan yutuqlar haqida misollar orqali hikoya qilinadi. Kitob o'quvchini Sharq miniatyura san'ati tarixi hamda yetishib chiqayotgan miniatyurachi san'atkorlar va ularning asarlari bilan tanishtirgani holda, ushbu soha mutaxassislari va

O'zbekiston miniatyura rangtasviri bilan qiziquvchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

12) B.T. Maxmudov. Rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009. 14-b. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va Dizayn institutining 2009 yil 25 martda o'tkazilgan Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Kompozitsiya tushunchasi va tajribasining qisqacha tarixi, kompozitsiyaning asosiy qonunyalari, kompozitsiyaning qoida, usul hamda vositalari, kompozitsion qonun-qoidalari va boshqalar yoritib berilgan.

13) S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009. 35-b. Unda amaliy va tasviriy san'atni o'rganish uchun kerakli bo'lgan rangshunoslikga oid bilim va tushunchalar keng yoritib berilgan.

14) R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2004 yil. 200-bet. Kitobida yangi pedagogik texnologiyada dars o'tish masalasiga qisman to'xtaladi. Unda ko'proq turli o'yin usullarini, krasvord, topishmoq suratlar haqida fikr yuritib uni dars jarayoniga olib kirish mumkin deydi. Bu metodik kitob tasviriy san'at ta'limida o'qiyotgan talabalar va o'qituvchilari uchun tayyorlangan. Bunda tasviriy san'at o'qitish metodikasining talablari va darslarni olib borish, tashkil etish, tarixi haqida fikr yuritilgan. Ko'pgina hollarda noan'anaviy darslar, ishlanmalar, krasvord, testlar ham keltirib o'tiladi.

16) N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.44-b. O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, zamonaviy rassomlar ijodiy faoliyati, ta'lim muammolarini yechish borasidagi ilmiy-falsafiy risolalar hamda dastur, qo'llanma va ko'plab maqolalar bilan tanishilgan.

Biz o'rgangan adabiyotlarning hammasida tasvirlash va o'rgatish haqida fikrlar beriladi. Adabiyotlarda tasviriy san'at asarlarini yaratilishi va tasvirlash yo'l-yo'riqlari ko'rsatilib o'tilgan.

## **1.2. Manzara janri haqida tushuncha va unda kompozitsiyaning tungan o'rne.**

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari xam ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda moxirdirlar.

Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, xayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi ham mumkin. Manzara janrining paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara janrining ikki xili mavjud . Birinchisi mustaqil manzara bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, patretning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan san'at ixlosmanlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'. Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni aloxida tilga olish mumkin. Manzara janrining aloxida shakllaridan biri bu inter'yer hisoblanadi. Inter'yer binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z ishlarida inter'yerni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilib Jotto, A. Verrokko, Leonardo da Vinchi, Remrandtlar shuxrat qo'zongalar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida I.Ayvazovskining xizmatlari katta bo'lgan. Bu ulug' rassom o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishlagan. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi

asarlari jahon tasviriy san'atida muhim o'rinni egallaydi. Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ifodalanishi mumkin. Maslan, potret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar. Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'laniladi. Haykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi. Dengiznavislik janri (Marinizm). Marina fransuzcha so'z bo'lib, dengiz ko'rinish ma'nosini beradi. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da baxor", Z.Inog'omovning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Temurovning "Bibixonimda bahor", "Ulug'bek madrasasi" asarlari mualliflarga shuxrat keltirdi.

Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks etirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamining eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi. Manzara asarlarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabii obrazini yaratadi. I.Levitaning "Oltin kuz", "Abadiy sokinlik uzra", I.Shishkining "O'rmon yiroqliklari", V.Meshkovning "Orol haqida o'ylar" kabilar shunday asarlardandir. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muhabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojaat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bunda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi. V.Vasnetsovning "Alyonushka" asari bunda misol bo'la oladi. Urushdan keyingi yillarda Respublikamizda muntazam tashkil etilgan xorijiy davlatlarning badiiy ko'rgazmalari, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiatni yangicha his etish, yanicha talqin qilish hissiyoti paydo bo'la boshladi. O'zbekiston rassomlarining tabiat manzaralariga yana ham ishtiyoqi ortdi. XX asrning 50-yillarida o'zbek manzara janrida O'ral Tansiqboev karvonboshi bo'ldi. Qishloq xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. 1950-yilda "O'zbekistonda bahor", "Paxtani sug'orish" asarini yaratdi. Tongda esayotgan

mayin shaboda va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Manzara kopozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlaridan biridir. "Qayroqqum GES tongi" (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. Asar 1957- yili Moskvada sobiq ittifoq ko'gazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda.

U. Tasiqboyev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratadi. "Olmaliqda" (1958 y.), "Sement zavodi" (1960 y.), "Chorvoq GES qurilishida" (1969-1970 y.) asarlari shular jumlasidandir. U. Tasiqboyev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlarni ham mahorat bilan tasvirlaydi. 40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili Nikolay Qoraxondir. Dastlabki ijodida qishloq hayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq hayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik yirik inshootlar, industriya manzaralaridan iborat bo'ldi. Uni xalqning farovon hayoti, mehnat jarayoni ko'proq qiziqtirdi. "Zavod trubalari" 1929 y, "Ishga ketayaptilar" (1934 y.) shular jumlasidandir. 50 -yillarga kelib rassom ijodida tog' mavzusi asosiy o'rin egalladi. Ko'proq bahor, kuz, tabiatning ertalabki, kechqurun paytlarini dekorativ ko'k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Tog'ning jo'shqin ohanglarini "Nanayga yo'l" (1954 y.), "Amu Daryoda" (1957y.), "Elektrostantsiya" (1957 y.) asarlarida tasvirlab berdi. 1958-yillarda kelib rassom ijodining yangi qirralari ochila boshladi. Buni "Gullayotgan vodiy" asari misolida ko'rish mumkin. Bahor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog' fondida gullab turgan oq, pushti, sariq oq ranglardagi daraxtlar, bepayon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go'zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti yechimi asosiy rol o'ynaydi. Esayotgan mayin shaboda, tizma tog'lar, sariq, tilla rangdagi bug'doyzorlar bunga misol bo'la oladi. Sariq mayin tilla koloritda yozilgan "Oltin kuz" (1962 y), "Tog'da kuz" (1959 y), "Oltin sinfoniya" (1962 y), "Toshkentda

kuz” (1967 y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli yetuk manzarachi sifatida namayon bo'ladi.

Rangli beqasamga o'ralgan tabiat qo'yniga berkingan tog' yonbag'ridagi qishloq, quyosh nurida jilvalanayotgan daraxtlar orasidagi so'qmoq yo'llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O'sha davrdagi kekxa rassomlar O.Tatevos'yan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O'zbekiston tabiati va hayotida sodir bo'layotgan yangiliklarni aks ettirdilar.

70-80 yillarda G'.Abduraxmonov, F.Toxirov, R.Choriyev, K.Bogoduxov, M.Yesin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.Nuritdinov, O.Qozoqov, Z.Islomshiqov, A.Mo'minov, A.Mirsatov kabilar mustaqil O'zbekistonning go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Tasviriy san'atning barcha tur va janrlari kabi tabiat ko'rinishlarini tasvirlashda ham kompozitsiyaning o'z o'rnini bor. Kompozitsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil unsurlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya – san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asari yaratadi.

Ko'pincha asarning tomoshabin tomonidan qabul qilinishi, uning kompozitsiya yechimiga bog'liq ekanligini yodda tutmoq kerak. Kompozitsiyani o'simliklar dunyosidan boshlab o'rganishga harakat qilib ko'raylik. Daraxt misolida ko'rilganda unib chiqayotgan ildiz, shox, barg, novdalarning tanasiga uzviy bog'liq ekanligini nazarda tutmoq lozim. Rassom tasviriy shakl orqali bo'laklarni bir-biriga bog'laydi va umumlashtiradi. Tasvirlash, demak, asar bo'laklarini o'zaro aloqalarini o'rnatish, ularni umumiy yaxlitlikka bog'lash, umumlashtirish orqali ko'zlangan maqsadga erishishdan iborat. Tasviriy san'at asari qaysi janrga mansub ekanligi va ifodalash uslubidan qat'iy nazar kompozitsiya bilan bo'lanishi asarning tugallangan san'at asari ekanligini bildiradi. Musavvirlar

asrlar davomida o'z asarlarining tasvirlash yechimini aniq, ravshan, tiniq namoyon etish maqsadida kompozitsiyaning yangi tuzilmalarini qidirishgan. Natijada asarlarda shakl elementlarining joylashuvi tartibsiz emasligi, sujetning ahamiyatga molik unsurlari oddiy geometrik ko'rinishlarda uchburchak, piramida, doira, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklardan tashkil topadi. Yangi zamonaviy kompozitsiyalar yaratish uchun albatta, g'oya, joylashtirish, mutanosiblik, simmetriya, assimetriya, nisbiylik, marom, xarakter turlari, ranglar uyg'unligi, kompozitsiya markazi, xajmi, stilizatsiya, shakllarni to'g'ri va teng qismlarga bo'lish, rangshunoslik qonunlariga to'liq rioya qilish lozim.

Tabiat ko'rinishlarini tasvirlashda tasvirlarni kompozitsiyada to'g'ri joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Joylashtirish – chizish kerak bo'lgan shakl yoki tasvirni yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Kompozitsiyada joylashtirish barcha mutaxassislik va soxalar uchun katta ahamiyatga ega. Musavvir o'zi chizmoqchi bo'lgan loyihani yuzaga to'g'ri joylashtira olishi lozim. Kompozitsiyada barcha unsurlarni to'g'ri joylashtira olmaslik natijasida asosida talabga javob bermaydigan san'at asarlar vujudga keladi. Asar mavzusidagi unsurlar to'g'ri joylashsa kompozitsiya shuncha mukammal bo'ladi. Joylashtirish jarayonida kompozitsiya qonunlariga to'la rioya qilish shart. Kompozitsiya tuzilayotganda mavzu, g'oya, mantiq, joylashtirish simmetriya va assimetriya, marom, mutanosiblik, nisbat, xarakter kompozitsiyada modul, keskin va nozik farqlanish, kompozitsiyasida stilizatsiya kabi qonunlar hisobga olingan holda ifoda etiladi.

Simmetriya – grekcha so'z bo'lib o'lchovlarning bir-biriga munosibligini bildiradi. Bir-biriga simmetrik o'lchovlarga misol keltiradigan bo'lsak tarozning pallasi ham bir-biriga nisbatan simmetrik joylashgan. Simmetriya mavzusi nihoyatda keng bo'lib uni vaqt va makondan cheklab bo'lmaydi. Insoniyat tarixi davomida deyarli har qanday sivilizatsiyada fan, san'at hamda intellektual faoliyatning boshqa turlarida, simmetriya muhim ro'l o'ynagan.

Me'morlar, musavvirlar, kompozitorlar, sozandalar va olimlar bir-birlariga yaqin tushunchalardan foydalanadilar, lekin turli tillarda gaplashadilar. Bu esa turli



soha vakillarining simmetriya borasida bir-birlarini tushunishlarini yana qiyinlashtiradi. Simmetriya biz sezadigan jonzod va jismlar masalan: kapalak, mebel va o'simliklar hamda hayvonat olamini qamrab olmasdan balki tasviriy san'at, kompozitsiya, musiqa, raqs, adabiyotda ham keng uchraydi. Simmetriya insonlar asrlar davomida tartib, go'zallik va mukammallikka erishish va yaratish uchun harakat qilishlaridagi g'oya bo'lib kelgan. Tabiatda simmetriya qandaydir ichki qonunlar asosida vujudga keladi. Simmetriyaning estetik ahamiyati uning hayotdagi ahamiyatiga bog'liqmi? - degan savol tug'iladi. Boshqacha qilib aytganda ijodkor simmetriyani tabiatdan oladimi? Tabiatdan nusxa ko'chirib uni takomillashtiradimi? Go'zallik simmetriya bilan uzviy bog'liqdir. Ko'zguda aks etgan simmetriya hayotda va san'atda katta ahamiyatga ega. Ko'zguda aks etgan simmetriyaning aniq geometrik tushunchasi mavhum bo'lgan muvozanatlashish, garmonik ijod tushunchalari bilan aralashib, qorishib ketgan. Frey o'zining «Tasviriy san'atda simmetriya muammosiga doir» maqolasida yozadi: "Simmetriya xotirjamlik va bog'langanlikni bildiradi, assimmetriya esa uning butunlay qarama-qarshisi bo'lib harakat va erkinlikni bildiradi. Shaklning simmetriya markazi, o'qi yoki tekisligiga nisbatan bir xil joylashishi simmetriya deb ataladi. Simmetriya markazi, o'qi yoki tekisligi atrofida aylantirilsa uning simmetrik unsurlari bir birining o'rnini to'la egallaydi. Simmetrik kompozitsiyaning alohida bir ko'rinishi – bu naqshlar. Simmetriya bilan bir qatorda assimmetriya tasvirlarda ko'p ishlatiladi.

Assimmetriya bu simmetriyaga qarama – qarshi qonun. Assimmetriya-simmetriyaning aksi va buzilishidir. Kompozitsiya assimmetriya asosiga qurilgan bo'lsa, unda asosiy qoidaga ko'ra simmetriya emasdir. Agar aksincha kompozitsiya simmetriya qoidalariga qanchalik rioya qilsa, assimmetriya bo'lmaydi.

Tabiatda rasm ishlashda maromning ham o'z o'rnini bor. Marom o'lchamlari mos bo'lgan unsurlarning qonuniy ravishda ma'lum masofada takrorlanishi va ketma-ket kelishidir. Marom tabiat va inson hayotidagi ko'pgina xodisalarga

organik tarzda xos bo'lgan xossadir. Kun va tunning, yil fasllari almashishi, organik hayot turli shakllarining rivojlanish davriyligi vaqtda yuz beradi. Bu davriylik va takrorlanish moddiy shakllarda o'z izini qoldiradi. Masalan, daraxt tanasi qirqimida yillik halqalarning takrorlanishi, yil fasllarining ketma-ket qaytarilishi tufaylidir, vaqtdagi davriylik fazoviy moddiy shakllarda o'z aksini topadi. Marom real borliq qonuniyatlarining aks etishi sifatida barcha san'at turlariga kirib kelgan hamda badiiy shakl yaratishning zaruriy vositasiga aylangan.

Kompozitsiyalar tuzishda mutanosiblik uslublarining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaklning ikki unsuri qismning o'zaro o'lchamli munosabati mutanosiblik deyiladi.

Nisbat keng ma'noda noma'lum bir kattalikni boshqa ma'lum kattalikka nisbatlash orqali topish imkonini beradigan munosabatdir. Nisbat tushunchasi o'zining dastlabki ma'nosida ifodalanayotgan chiziq uzunligining haqiqatda mavjud bo'lgan chiziq uzunligiga nisbatini bildiradi. Nisbat sonlarda yoki ma'lum o'lchamdagi to'g'ri chiziq kesmalari orqali ifodalanishi mumkin. Nisbat bo'lganligi tufayli biz chiziqlarni, haritalarni o'qish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ushbu xolatda nisbat chizilgan jism o'lchamlari uning haqiqatdagi o'lchamlariga mos kelishi darajasini ifodalaydi. Inson ko'rayotgan biror narsaning kattaligini real sezish uchun uni yaxshi ma'lum bo'lgan boshqa bir narsa bilan aqlan solishtirib ko'rishi lozim.

Kompozitsiyada keskin farqlanish solishtirishning buyumning tashqi ko'rinishdagi ranglarning o'ziga xos belgilarni aniqlaydi. Keskin farqlanish xususiyatlarini baholashda buyumlarni bir-biriga nisbatan solishtirish mumkin. Solishtirish jarayonida ayrim olchamlarda keskin farqlanish ko'z bilan qarab osongina aniqlanadi.

Nozik farqlanish. Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, tasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko'rinishidagi yaqin xususiyatlar nozik farqlanish deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish

imkonini beradi. Nozik farqlanish ko'zning bir qator takroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir.

Tabiat kompozitsiyasida stilizatsiya. Stilizatsiya tabiatdagi o'simlik, hayvonot va boshqa narsalarning tasviri, rangi, shakli, va tuzilishi badiiy usulda umumlashtirish ya'ni ramziylashtirishdir. O'quvchilar kompozitsiya unsurlari chizishda o'simliklardan shox, poya, g'uncha, barg, gul, hayvonlar, qushlar, tabiat manzalari, tog'lar, daryolar, quyosh, yulduzlar va boshqa ko'rinishlardan nusxalar ko'chirib, tasviri, rangi, shakli, va tuzilishlarini badiiy usulda umumlashtirib, ramziylashtiradi. Tabiat kompozitsiyalarida ulardan oqilona foydalanib juda ajoyib tasvirlarni hosil qiladi. Buni ko'rgan inson aks ettirilgan shakldan estetik zavq oladi. Bu usuldagi tasvirlarni biz tasviriy san'atining barcha turlarida ko'rishimiz mumkin.

Stilizatsiya o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllardir. Masalan: butalar, novdalar, shohlar, barglar, mevalar, gullar va shu kabi shakllarni qayta ishlash demakdir. O'quvchilar o'zlari tanlagan naturaning shaklini kompozitsiya tarkibiga qo'shish mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiradi. Bunda naturaning ayrim qismlari, ranglarni badiiy shaklga keltiriladi. Bular o'quvchilarning ijodiy fantaziyasini yanada rivojlantirishga yordam beradi va ularning ijodiy qobiliyatini yanada o'stirib boradi. Bunda o'quvchilar butun bir yaxlit jismning tashqi ko'rinishini bir necha badiiy chiziqlar yordamida aniq va lo'nda qilib tasvirlashni o'rganadilar.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'ati ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrakt qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, "dog" oraliq xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi.

Tasviriy san’atda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari o’qitiladi. “Kompozitsiya” Tasviriy va amaliy san’atning hamma turlari, janrlarida mavjud bo’lib, asarning asosiy negizini tashkil etadi. Kompozitsiya so’zi lotinchadan “komposito” predmetlar bo’laklarining solishtirib, ma’lum tartibda yaxshi joylashtirish, g’oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir. Tasviriy san’atda kompozitsiya qalamtasvir, soya, yorug’, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi. Kompozitsiya – o’quv narsasi haykaltroshlik, memorchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir kabi mutaxassis fanlar bilan uzviy bog’liqdir. Qalamtasvir va rangtasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojat qiladi, uning qonun-qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir mohiyatini tushunib etmaydi. Manzara janrida mukammal asarlar yaratish uchun kompozitsiya qoidalarini yaxshi o’zlashtirish kerak bo’ladi.

### **1.3. Manzara janrida rasm ishlashda badiiy materiallardan foydalanish.**

Tasvirlash jarayonida asosan bo'yoqlar, moyli bo'yoq, akvarel', guash', tempera, shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Tasvirlash jarayonida ranglarni topishda, bo'yoqlarning akvarel, guash, tempera va moybo'yoq turlari mavjud. Bo'yoqlardan, «akvarel» lotincha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, «akvarelda ishlangan rasm» degan ma'noni bildiradi.

O'rta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llaniladi. O'rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatura hamda illustratsiyalar ishlashda shuhrat qozondi. Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarining ko'payishiga va xilma-xillashuviga olib keladi. Hozir akvarelning (bir qancha turlari mavjud. Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Bog'lovchi moddalar asosan, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, dekstrinlar miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi. Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning, dekstrinning suvdagi eritmasi, meva shakari tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval, shiraning hamda dekstrinning suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Meva shakari suv bilan aralastirilib, siropsimon eritma hosil qilinadi. Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi elementning ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glitserin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi. Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonda uchraydigan pigmentlardan (masalan, jigarrang, karmili bo'yoqlardan)

tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-birlari bilan yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim.

Akvarel tayyorlash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erisa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan hisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, quyilgan akvarel bo'yog'i quriganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib, ochlashadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi. Akvarel bo'yoqlarida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi mavjud bo'lib, unga amal qilinmasa tayyorlangan ishlarning sifatiga putur yetishi mumkin. Biz akvarel bo'yog'ida biror naqshni yoki bezakni bo'yashimizdan oldin, uning chiziqli tasvirini tayyorlab olamiz. So'ng, bo'yashga o'tamiz. Mo'yqalamda bo'yoq olinayotganda uni haddan tashqari qattiq ishqalash mumkin emas. Aks holda mo'yqalam yedirilib ketishi mumkin. Olingan bo'yoq qavati qog'oz sirtiga yupqa qavat tarzida surtilishi lozim. Agar bo'yoq qavati haddan tashqari quyuc bo'lsa, qog'oz sirti ko'rinmay qoladi va akvarel bo'yog'ida ishlash texnikasi qo'pol ravishda buzilgan bo'ladi.

Avarelda etyud ishlashda katta imkoniyatlar ega bo'lgan surtmalaridan keng foydalanish mumkin. Rang qatlamalrining tabiiy notekisligi, bo'yoqning tasvir shakliga mos ravishda oqib yoyilishi, suv bo'yoq go'zalligini yanada ko'proq namoyon qiladi. Quriy boshlagan rang qatlami bo'ylab "quriq" mo'yqalam usulida chiziqlar yuritib, shakl ma'nodorligini yanada oshirish mumkin. Etyudda fazoni bir bo'yoq rangini ikkinchi rangga qo'yib yuborish yo'li bilan tasvirlash mumkin. Bunda ranglarning bir – birlari bilan nozik birikuvlari, uzluksiz tekis kirishuvlarini keltirib chiqaradi. To'q rang bilan yengil surkama jilolar yordamida etyudning rang yechimi keltirib chiqariladi. Agar etyud ma'nosi muhim mavzuga mo'ljallangan bo'lsa, tasvirni "quruq" mo'yqalam yordamida aniqlashtirish, biror joyni kontrastlashtirish, nimanidir kuchaytirish va nimadandir voz kechish mumkin. Manzara ishlashda suv bo'yog'i guashdan ham keng foydalaniladi.

Guash italyanча — suvli bo'yoq degan ma'noni bildiradi. Kukun bilan suv yelim bog'lovchilari, bug'doy kraxmali, dekstrin va boshqalar hamda oq bo'yoq (belila) aralashmasidan iborat bo'yoq. Guash akvareldan oq bo'yoq qo'shilganligi, bo'yoq qatlamining qalinligi va bo'yoq qatlamlarining xiraligi bilan farq qiladi. Hozirda guash plakat, amaliy, grafika va kitob grafikasi, teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatura, mahobatli rangtasvir, naqqoshlik va boshqalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubiklar holida ishlab chiqariladi.

Guash bo'yog'i quyuc ko'rinishda bo'ladi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitserin, suv, kuchsiz olcha shirasi va boshqalar quyiladi. Guash bo'yog'ida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, mo'yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo'yoq qavatining bir tekisda to'la berkitadigan bo'lishi kerak. Guash bo'yog'ining tarkibiy bog'lovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi. Guash bo'yog'ini tayyorlashda bo'yoq kukunlaridan foydalaniladi. Guash bo'yog'ida akvarel mo'yqalamlari va ulardan biroz qattiqroq mo'yqalamlar hamda moy bo'yoqlari uchun chiqarilgan mo'yqalamlardan ham foydalaniladi. Guashning flyuoressensiyali guash deb ataladigan turi ham bo'ladi. Bu guash turini akvarel va temperalar bilan aralashtirib ishlatilsa ham bo'ladi. Flyuoressensiyali guash o'zining chiroyliligi, tekisligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Umuman, guash bo'yoqlari rasmlar, naqshlar har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi.

Guash bo'yog'ida ishlashda ham ana shu tartiblarga rioya qilinsa-da, uning tuslari yuzaga o'ta qalin bo'lib qoplanishi bilan farq qiladi. Buni unutmaslik lozim-ki, guash bo'yoqlarining tarkibida oq bo'yoq moddasi mavjud bo'lganligi sababli uning tuslari keyinchalik ochlashib ketadi. Shunga ko'ra olinadigan rang tuslari belgilangan darajadan ancha to'qroq tuslarda bo'lishi lozim. Aks holda bo'yoq qavati ho'lligida to'q bo'lgan rang tuslari keyinchalik ochlashib ketadi va ko'rinishini buzadi. Guash bo'yog'ida ishlangan naqshlar va bezaklar rang tuslarining ancha xiraligi bilan akvareldan farq qiladi. Ular ana shu xarakterli xususiyatlardan kelib chiqqan holda ko'pincha aralashtirib ishlatiladi. Guash

bo'yog'i quyuqligi jihatidan moybo'yoqlarga o'xshab ketsa-da, lekin, faqat qog'ozlar sirtigagina bezaklar ishlash mumkin bo'ladi. Ba'zi hollarda guash bo'yog'idan miniatura ishlashda, qutichalar sirtini bezash va lok bilan qoplash orqali foydalaniladi.

Guash bo'yoqlari bilan ishlashda akvarel, tempera va moybo'yoqlari uchun qo'llaniladigan uslublardan foydalaniladi. Rangtasvir ishlashda, rang tuslarini har xil ko'rinishini hosil qilishda suvni ko'p qo'shib yuborilsa o'zini xususiyatini o'zgartirib, bo'yalayotgan yuza tekis chiqmay, ola-bula chiqadi. Agar guash qurib, qotib qolgan bo'lsa, ustiga iliq suv, suyuq duradgorlik yelimi yoki PVA bo'yog'i qo'shiladi. Ikki yoki uch kun o'tgandan so'ng guash yaxshilab aralashtiriladi. Guash qumoq-qumoq bo'lib qolgan bo'lsa uni dokadan yoki kapron paypoqdan o'tkazib olish kerak. Guashga duradgorlik yelimi yoki PVA qo'shilishi sababi, u uning tarkibini mustahkamlaydi. Yana ishchi yuzani bo'yalgan joyi qo'lga yuqmaydigan bo'ladi. Ish jarayonida guash idishlaridan oddiy tayoqcha yoki maxsus oddiy kurakchalardan foydalaniladi. Shu kurakchalar yordamida bo'yoqlar olinadi. Har bir guash bo'yoq rangiga alohida kurakcha ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Guash bo'yog'ini ishlatishda akvarel, mo'yqalam va maxsus guash bo'yog'i uchun akvarel mo'yqalamidan qattiqroq mo'yqalamlar ishlatiladi. Ko'pincha guash bo'yog'i uchun ishlab chiqarilgan yumshoq yoki yapaloq mo'yqalamlar ishlatib kelinadi. Guash bo'yog'ida bezalgan buyumlarning ustidan lok surkab, qoplanadi. Surtilgan lok hisobida naqshlarning rangi oz miqdorda to'qlashadi. Shu to'qlashish hisobini har doim esdan chiqarmaslik lozim.

Tempera lotincha *temperare* (*temperari*) so'zidan olingan bo'lib, aralashtirish degan ma'noni anglatadi.

Tempera ham suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar turkumiga kiradi.

Hozir esa temperaga bo'lgan qiziqish yanada oshdi. Bunga sabab temperaning namga, harorat va tashqi muhit o'zgarishlariga chidamliligidir. Lekin, uning kamchiligi shundaki, qo'yilgan bo'yoq qavati haddan tashqari



qurib ketsa, qattiqroq bosilganda yoki turtilganda gruntdan tushib ketishi mumkin.

Temperalar odatda, sanoat usuli bilan kichik va katta tyubiklarda ishlab chiqariladi. Ularni uzoq vaqt saqlashga to'g'ri kelsa, quyosh nuri tushmaydigan salqinroq joylarga qo'yish tavsiya etiladi. Rangtasvir asarini yaratishda ma'lum tartibga rioya qilmoq zarur. Odatda, musavvir tasviriy asar yoki devoriy surat ustidagi ishni uncha katta bo'lmagan o'lchamdagi bir qancha eskiz va chizgilarni bajarishdan boshlaydi. U, bu eskizlar yordamida o'z ijodiy fikrini aniqlab oladi. Shunday so'ng musavvir bo'lajak ijodiy asarini tasvirlay boshlaydi. U, buni bajarishda qalamdan, ko'mirdan yoki suyultirilgan bo'yoqdan va ingichka mo'yqalamdan foydalanishi mumkin. Asarni eskiz – chizgisini boshqa tekislikka ko'chirish zarur bo'lib qolsa, xitoy qog'ozi yoki kartondan foydalanadi. Ba'zan musavvirlar ijodiy ishning bu bosqichini chetlab o'tadilar. Dastlabki qalam tasvirini tushirmasdan, bevosita bo'yoqlar bilan chiza boshlaydi

Moybo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning o'ziga xos xususiyatlarini puxta bilib olish zarur. Moybo'yoq, bo'yoqlarning har bir turi o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Moybo'yoqlar bilan ishlashni puxta bilgan talaba tasvirlash tilining o'ziga xos tomonlarini bilib oladi. Moybo'yoq va loklar XV asrdan boshlab ishlatib kelinadi. Rangtasvirda qo'llanishini esa niderlandiyalik aka-uka rassom Van Deyklar boshlab berganlar. Ular zig'ir moyi juda tez qotishini bilib qolganlar va keyinchalik bo'yoq kukunini shu moyda qorishtirib, juda tiniq va yorqin bo'yoqlar hosil qilishga muvaffaq bo'lganlar. Ular moybo'yoq texnikasini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shganlar. XVI asr rangtasvir san'atida moybo'yoq rangtasviri asosiy o'rinni egallagan. Moybo'yoq bilan ishlash 1920-yillardan so'ng rivojlana boshladi. Keyingi vaqtlarda moybo'yoq bilan tasvir ishlash keng miqyosda tarqaldi. Moybo'yoq uncha suyuq bo'lmagani uchun, akvarel kabi mo'yqalamdan va tasvir tekisligi yuzasidan oqib ketmaydi. Uning asta-sekin qurish xususiyati esa matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq birikmasiga ancha uzoq vaqt mobaynida ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Moybo'yoqlarni ishlatish akvarel bo'yoqlarga

nisbatan qulaydir. Ularning yana qulayligi shundaki, mabodo rang tusi noto'g'ri topilgan bo'lsa, uni qaytadan ishlash imkoniyati bor. Moybo'yoq matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq qurigach, o'zining dastlabki rangini o'zgartirmaydi. Akvarel yoki guash bo'yoqlari kabi oqarmaydi.

Moybo'yoq suyuq va quyuqroq holda, yupqa tiniq qatlam tarzida yoki quyuq holda ishlatilishi mumkin. Lekin, boshqa bo'yoqlarga, ya'ni akvarel, guash va hokazoga nisbatan moybo'yoqni ishlatish uchun zarur jihozlar ancha murakkab. Moyli bo'yoqlar yordamida ishlangan tasviriy san'at asarlari uzoq yillar davomida saqlanadi va kishilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Moybo'yoqlarni ishlatishda ularni suyultirish uchun erituvchi moddalardan foydalaniladi. Buning uchun maxsus tayyorlangan erituvchilar — penin, 1 va 2 raqamli suyultirgich loklar, yong'oq moyi, kanop yog'i ishlatiladi. Bo'yoqlar, mo'yqalamlar va etyudlarni tartibli, ozoda saqlab yurish uchun maxsus moslama — “etyudnik,, bo'lishi lozim. “Kombayn,, - oyoqli etyudnik xona ichida ham, tabiat qo'ynida ham etyudlar ishlash uchun juda qulay moslama hisoblanadi.

Moybo'yoq rang — tasviri, asosan o'ziga xos ikki uslubda namoyon bo'ladi:

1. Bir boshlashda ishlab bitkazish kerak bo'lgan ish uslubi — allaprima deb yuritiladi. Bu uslubda bajariladigan etyud moybo'yoqning sekin — asta qurishi xossasidan foydalanib, bir galda yoki bir necha galda qo'yilgan bo'yoqlar hali qotib ulgurmasdan tugatiladi.

2. Bir hecha marta takror ishlashga mo'ljallangan rang — tasvir metodi ko'p qatlamli deb yuritiladi. Uning mohiyati shundaki, vazifa bosqichlar bilan birin — ketin bajarib boriladi.

Tabiat ko'rinishlarini tasvirlashda, tasvirlashning qonun qoidalariga e'tibor qaratilish bilan birga bo'yoqlar bilan ham to'g'ri ishlashni bilish talab etiladi. Har bir rang bir olam ma'noni anglatadi. «Nima uchun tabiat yashil rangda yaratilgan? Buning sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo'lsa, qanday ma'noni anglatgan bo'lar edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko'taradi? Qaysi biri salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatadi? Ranglarni inson hayotidagi o'rni nihoyatda ahamiyatli ekanligi bizga ma'lum. Tabiatdagi mavjud ranglarni ikki qismga: axromatik va

xromatik ranglarga ajratish mumkin. Oq gil rang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatda ajratishidan hosil bo'ladigan barcha ranglar tusalari axromatik ranglar deyiladi. Spektorda axromatik ranglar qatnashmaydi.

Agar biz kartondan doira qirqib olsak va uni spektor ranglari tartibida qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havo rang, zangori ranglar bo'yab chiqib, o'z o'qi ya'ni ventilyator o'qiga o'rnatib o'z o'qi atrofida tez aylantirsak umumiy ko'rinishdagi kul rang tusini kuzatamiz. Yana xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar qizil, sariq va zangori ranglarni aylantirganimizda esa yanada yorug'roq bo'lgan och kul rang hosil bo'ladi. Shu yetti xil rangni palitrada aralashtirib ko'rsak qoramtir tusdagi ko'rimsiz aralashna hosil bo'ladi.

Axromatik ranglarning xromatik ranglardan farqi shuki, ular tanlamay yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya'ni biror rang tusiga ega bo'lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Har bir xromatik rang uchta xossaga: rang tusiga, rang yorqinligiga, rang to'yinganligiga ega bo'ladi.

Spektorni sinchiklab kuzatsak uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir – biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi.

Tabiatdagi yorug'lik manbayi quyosh bo'lib, uning nuri juda murakkab yorug'lik hisoblanadi. Ranglar doirasida rang tusalari juda ko'p bo'lishi mumkin, lekin bizning ko'zlarimiz 150 taga yaqinini ajratishga qodir.

Sovuq ranglarga esa muz, suv, osmonning rangini eslatuvchi ko'kish rang, zangori, binafsha, havo rang, to'q qizil, ko'kish qizil ranglar kiradi. Tabiatdagi mavjud ranglarni yana o'z navbatida iliq va sovuq ranglarga ajratish mumkin. Iliq ranglarga quyoshni, alangani, qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg'aldoq, qizil, sarg'ish yashil kabi ranglar kiradi.

Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik rangtasvir asosan o'quv jarayonida foydalanadigan ko'rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi. 1. Dasgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir. 3. Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri. 4.

Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ (bezak) rangtasviri. Rangtasvirning bu turlari o'z navbatida yani boshqa turlarga bo'linadi. Misol sifatida monumental rangtasvirni olib qarasak, u: freska, mozayka, vitraj, panno kabi turlarga bo'linadi.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Har qanday rangtasvir ishida, avallo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rinni egallaydi. Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatdan turli-tuman bo'lib, ular moy bo'yoqli, temperali, freskali, mozaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli, bo'lishi mumkin. Rangtasvir deb tekis yuzaga turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi.

Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog' (surtma) soya-yorug', rang, chiziqli, havo va rang perspektivalari kompozitsiyaning vositalaridir. Chiziqni esa tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri deyish mumkin. Undan uzoq muddatli, qisqa mudatli kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Rassom qog'oz yuzasida narsa shaklini ochroq, to'qroq chiziqlar orqali ifodalashi mumkin. Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarning qalinligi narsalarning soya, yorug' joylariga shakil berib, chuqurlik, masofani ifodalashga beradi. Rang va tus kompozitsiya tuzishda muhim rol o'ynaydi. Asarda plastik hajm, chiziqli, havoyi, rangli perspektivalarning roli kattadir. Tabiat manzara ta'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda ertish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki soviq, ochroq yoki to'qtoq, yaqqol yoki umumlashgan tarzida bajarish mumkin. Jonli tabiatni his qilish, uning g'oyat ko'rkamligini ilg'ay olish, shuningdek qiziquvchanlik har bir etyud yechimiga mezon b'ladi. Chunonchi, tabiat har qachon ijodiy izlanishlar, go'lallikni his qilib didini o'stirish manbayi bo'lib kelgan.

#### **1.4. Tasviriy san'at janrlarida ishlangan rangtasvir asarlaridan badiiy tahlil qilish.**

Har qanday san'at turi insonga o'z ta'sirini o'tkazib uning qarashini shakillantiradi. Tasviriy san'at insonning hayotidagi jasoratini, fikrini va ichki hissiyotlarini aks ettiradi.

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilganlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboyev, Ilxom Jabborov, Javlon Umarbekov, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Hakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullayev, G'ofur Abduraxmonovlar alohida mavqyega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzayev rangtasvir ustasi xalqimiz an'alariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, g'oyalarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lozar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi, "Bola xonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" kabi o'nlab asarlar moybo'yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka

yetaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir.

Baxodir Jalolov ham O'zbekiston xalq rassomi bo'lib, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga katta xissa qo'shib kelayotgan iste'dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Sh.Axmarov, R.Choriyev, Ye.P. Melnikov, B.D. Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko'zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. U portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B.Jalolov ijodida olam sirlari o'zgacha talqin etiladi. Bunga, "Gul va Rayhon afsonasi", "Nido", "Baxt qushi", "Abadiy va navqiron Xindiston", "XXI asr Madonnasi" kabi ko'plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo'lgan o'zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir.

Ma'lumki, san'atning turlari nixoyotda ko'p bo'lib, ularning eng asosiysi sifatida adabiyot, musiqa, kino, teatr, memorchilik, amaliy bezak, sirk, televideniya, tasviriy san'at kabilarni e'tirof etish mumkin. "Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq tosh, gips, yog'och, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil ko'rinishlarining va narsalarning rasmi, haykalini ifodlash tushiniladi. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o'rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Qadimdan kishilar san'atni, kishilarning o'zaro munosabatlari va faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'satadi deb hisoblaganlar.

Manzara - tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy, maishiy asarlarda ham vosita – fon sifatida muhim ro'l o'ynaydi. Qadimgi xitoy san'atlarida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar. Evropada manzara janri tarixi XVI – XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatga erishganlar.

Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir evuchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamining eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi. Manzara asarida inson shaxsi, aql – zakovati, ichki tuyg'ularini tasir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. I.Livitaning “Oltin kuz”, “Abadiy sokinlik uzra”, I.Shishkining “O'rmon yiroqliklari” kabilar shunday asarlardandir. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muhabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mazmundagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bunda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

Sharq tasviriy san'atining yirik namoyondasi, mo'yqalamning sehri bilan nafosat olamiga nur baxshida etgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning nomi jahon tasviriy san'ati tarixida alohida o'rinni egallaydi. Afsuski, bizgacha Behzodning hayoti, ijodiy faoliyati haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Behzod madaniyat va san'atning rahnomasi Alisher Navoiy dahosidan yetarlicha bahramand bo'laolganligi ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlangan. O'z davridayoq Alisher Navoiy portretini yaratish borasida Kamoliddin Behzod samarali ijod qiladi. Shuningdek, Navoiyining hayotiga bag'ishlangan va Navoiy portreti tasvirlangan asarlari tufayli Hirot madaniyat olamida taniladi. Asta – sekin Behzod Hirotida katta hurmatga sozovor bo'la boshlaydi. U 1487 yili Xuroson hukmdori Husayn Bayqaroning Hirotidagi kutubxonasiga rahbar yetib tayinlanadi.

Buyuk rassom sharq allomalari Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi

mutafakkirlarning asarlarini rangtasvir orqali yanada jonlantirib, targ'ib yetdi. Behzod va shu davrda uning zamondoshlari tasviriy san'atda erishgan yutuqlar keyinchalik butun jahon san'at ixlosmandlari diqqatini o'ziga tortdi. Ayniqsa, buyuk musavvir tomonidan yaratilgan portretlar o'z davrida mashhur bo'lib qolmasdan, jahon san'at ixlosmandlari ye'tiborini o'ziga jalb qilgan. XV asrning 80-yillariga mansub Alisher Navoiy bilan Sulton Husayning madrasadagi qiyofalari aks ettirilgan miniatyuralar «muraqqa» ya'ni tasviriy san'at al'bomlaridagi miniatyuralar e'tiborga molik. Miniatyuralarda tabiat ko'rinishlari fonida ustoz va shogirdlar o'rtasidagi samimiy muloqotlar payti aks yettirilgandir. Mazkur asarlar ayni paytda Sankt – Peterburg shahridagi Saltikov- Shedrin nomidagi kutubxonada saqlanadi. Umaman rassom portret san'ati borasida bebaho yutuqlarni qo'lga kiritgan. Jumladan, Alisher Navoiy Sulton Xusayn Bayqoro, Muxammad Shayboniyxon, Abdurahmon Jomiy portret-asarlari orqali tengsiz san'atkor ekanligini isbotlagan.

1507 yilda yaratilgan Muhammad Shayboniyxon suratidir. Bu asarda tizzalariga ikki qo'lini tayagan, chordona qurib o'tirgan mag'rur holatda Shayboniyxonning salobatli obrazi gavdalanadi. O'ng qo'lida o'q-yoy otganda taqadigan xalqa ushlab turgan bo'lib, bu esa uning mahoratli jangchi ekanligidan dalolat beradi. Oldidagi siyohdon va shunga o'xshash buyumlar bilim egasi, ma'rifatparvar kishi yekanligini ko'rsatadi.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muhabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bunda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi. V.Vasnetsovning "Alyonushka" asari bunda misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik, o'zgarishlarni K.Yuon, Yu.Pimeayev, G.Nisskiy kabi rassomlar o'z asarlarida tasvirlab berganlar. Ulug' vatan urushdan keyingi yillarda O'zbekiston rassomlarining tabiat manzaralariga yana ham ishtiyoqi ortdi. XX asrning 50-yillarida o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboev karvonboshi bo'ldi. Qishloq



xo'jlik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. 1950-yilda "O'zbekistonda bahor", "Paxtani sug'orish" asarlarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shaboda vashildirab oqayotgan suv, tamoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Hayotning ob'ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishning epik holatda yuzaga kelishi "Ona o'lka" asarida (1951 y.) o'z aksini topdi. "Qayroqqum GES tongi"(1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. Asar 1957- yili Moskvada sobiq ittifoq ko'gazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal' bilan taqdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Qarshimizda katta keng gidroelektrostantsyaning qurilish panoramasi, orqasida "Qayroqqum" dengizi kompozitsiya gidrostantsiya qurilishi namoyon bo'ladi. Tepalikdagi bul'dozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida qayroqqumda haqiqatni poetik talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tusalardagi kontrast pushti, tilla, ko'k ranglarda go'zal tabiatning bepoyon kengligidagi qaynoq hayot o'z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan. O'. Tansiqboyev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratadi. "Olmaliqda" (1958 y.), "Sement zavodi" (1960 y.), "Chorvoq GES qurilishida" (1969-1970 y.) asarlari shular jumlasidandir. U.Tansiqboyev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlarni ham mahorat bilan tasvirleydi. O'zbek tabiat manzara san'atining kuychisi O'ral Tansiqboyevning ko'p asarlari Moskvadagi Tret'kov galereyasi va O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.O'quvchi yoshlarni estetik munosabatlarini shakllantrishda rangtasvir asarlarini ko'zatar ekanmiz beixtiyor ko'z odimizga jonajon o'kamizda ijod qilgan ajoyib mo'yqalam sohiblarini rangtavirda yaratgan asarlari ko'z o'ngimizda gavgaldanadi. Shunday betakror mo'yqalam sahiblaridan biri O'ral Tansiqboyev asarlarini ko'zata turib, bunchalik go'zalikni, noziklikni , mehrni rassom o'z ijodida qanday qilib namoyon

qilganligiga hayratlanasan. Chunki Shahrimizning go'zal tabiati, havosi yeri, o'simligi, hayvonot dunyosi barcha –barchasi inson qalbiga shunchalik yaqinki , unga maftun bo'lmasdan, yurakda his- hayajon paydo bo'lmasdan qolmaydi. Ona tabiat shunchalik istedad, mahorat ato etgan musavvir O'. Tansiqboyev butun umrini jonajon o'lkamiz tabiatini tasvirlashga harakat qildi.

Rassomning asarlari nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoga mashxur bo'ldi. Ayniqsa rassom umrining so'ngi yillarida yaratgan “Mening qo'shig'im” nomli manzara janrida ishlangan asari bo'lib, kartinada diyorumiz go'zal tabiati tog'lar, daraxtlar, usimliklar dunyosi rangli bo'yoqlarda shunchalar mohirona tasvirlanganki , buni so'zlar bilan tariflash ason ish emasligi namoyon bo'ladi.

40-50 yillardagi o'zbek manzara san'atining yana bir vakili Nikolay Qoraxondir. Dastlabki ijodida qishloq hayoti, keng dalalar, yo'llar, mehnatkash xalq hayoti asosiy mavzu bo'lsa, keyinchalik yirik inshotlar, industriya manzaralaridan iborat bo'ldi. Uni xalqning farovon hayoti, mehnat jarayoni ko'proq qiziqtirdi. “Zavod trubalari” 1929 y, “Ishga ketayaptilar” (1934 y.) shular jumlasidandir. 50 –yillarga kelib rassom ijodida tog' mavzusi asosiy o'rin egalladi. Ko'roq bahor, kuz, tabiatning ertalabki, kechqurun paytlarini dekorativ ko'k, yashil, sariq, qizil ranglarda jozibali qilib tasvirladi. Tog'ning jo'shqin ohanglarini “Nanayga yo'l” (1954 y.), “Amudaryoda” (1957y.), “Elektrostantsiya” (1957 y.) asarlarida tasvirlab berdi. 1958-yillarda kelib rassom ijodining yangi qirallari ochila boshladi. Buni “Gullayotgan vodiy” asari misolida ko'rish mumkin. Bahor, tabiat bayram libosida. Binafsha rangli tog' fondida gullab turgan oq, pushti, sariq oq ranglardagi daraxtlar, bepayon dalalarga gilam yozgan yashil maysalar, go'zal tabiatga chiroy ochib, insonga qanchadan qancha shodlik va quvonch baxsh etadi. Asarda rang koloriti yechimi asosiy rol o'ynaydi. Esayotgan mayin shabada, tizma tog'lar, sariq, tilla rangdagi bug'doyzorlar bunga misol bo'la oladi. Sariq mayin tilla koloritda yozilgan “Oltin kuz” (1962 y), “Tog'da kuz” (1959 y), ”Oltin sinfoniya” (1962 y), “Toshkentda kuz” (1967 y) asarlarida Nikolay Qoraxon odil fikrli yetuk manzarachi sifatida namoyon bo'ladi. Ranglar jilosiga o'ralgan tabiat qo'yniga berkingan tog' yonbag'ridagi qishloq,

quyosh nurida jilvalanayotgan daraxtlar orasidagi tuproq yo'llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O'sha davrdagi keksa rassomlar O.Tatevos'yan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O'zbekiston tabiati va hayotida sodir bo'layotgan yangiliklarni aks ettirdilar. Z. Kovalevskaya, Z. Inog'omov, N. Qo'ziboyev, K. Bogoduxov, G. Ul'ko kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar. A.Roziqovning "O'zbek hovlisi" (1947-y), "Sherdor hovlisida" (1950-y), "Samarqanda bahor" (1958-y) kabi asarlari bunga misol bo'ladi. Yana shunday ajayib rassomlardan biri, o'zining sehrli mo'yqalami bilan ajoyib asarlar yaratgan Rashid Timurov go'zal Samarqandni kuylagan yetakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaharda yashab, ko'p asrlik qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog'larni, hayotni sevib, tabiat go'zalligidan ilhomlanib ijod qildi. "Samarqand bog'lari" (1946 y), "Bibi-xonim maydoni, Bahor" nomli asarlarida sokinlik, xalqni bayramlarini tarannum etadi. Samarqanddagi "Shoxi zinda", "Hazrat Xizir", "Ulug'bek madrasasi", "Afrosiyob" yodgorliklarini chiroyli tasvirlagan Rashid Temurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi his etardi. U "Samarqand" asarida ko'rish nuqtasini juda to'g'ri topgan, panorama ko'rinishida tasvirlagan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi.

Har bir rassom, o'z davrida manzara janrida ham o'zini sinab ko'radi, lekin hammalari ham manzarani yaxshi his eta olmaydi. Manzarachi rassom bo'la olmaydi. Tabiatni vujudi bilan his etib sevgan malakali rassomgina o'z his tuyg'ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko'plab keksa avlod rassomlari bizga go'zal manzara asarlarini yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asarlarining mazmunini, kopozitsiya tuzilishini ularning ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rinlidir.70-80 yillarda G'.Abduraxmonov, F.Toxirov, R.Choriyev, K.Bogoduxov, M.Yesin, kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar.Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.Nuritdinov, O.Qozoqov, A.Mo'minov, A.Mirsatov kabilar mustaqil O'zbekistonning go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

O'quvchi yoshlarni estetik munosabatlarini shakllantrishda rangtasvir asarlarini ko'zatar ekanmiz beixtiyor ko'z odimizga jonajon o'kamizda ijod qilgan ajoyib mo'yqalam sohiblarini rangtavirda yaratgan asarlari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Mustaqillik yillarida ijod qilgan ajoyib istedodli mo'yqalam sohiblaridan biri, bir necha janrlarda, ko'plab asarlar yaratgan, ezgu umidlarini betakror bo'yoqlar orqali tasvirlab, samarali ijodi bilan ko'pchilikka manzur bo'lgan O'zbekiston xalq rassomi professor G'ofir Abdurxmonov rangtasvir san'atining ko'pgina janrlariga dalil murojat qila olgan rassom sifatida ajralib turadi. Bu o'rinda ayniqsa tematik kompozitsiyalar, manzara, natyurmort, portret janrlaridagi faoliyatlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Rassom yaratgan kompozitsiyalarni keng qamrovligi va rang – barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bu ayniqsa "To'y", "G'alaba", "Baxmallik qizlar", "Hosil bayrami" kabi asarlarida bir necha o'nlab inson figuralarini o'ziga xos obrazli qilib tasvirlanishi diqqatga sazovordir. Bu asarlar o'z davri uchun g'oyaviy jihatdan juda katta e'tiborga molik bo'lsa, ishlanishi kompozision yechimlarning to'laqonliliagi inson qiyofasini ichki va tashqi xususiyatlarini aks ettira olashi bilan har bir davr uchun ham xarakterlidir. Rassom G'ofur Abduraxmonov ijodining ajralmas va o'ziga xos tomonlaridan yana biri natyurmort janri bo'lib, o'z natyurmortlarida ona tabiat sahavatini mahorat bilan, tasvirlab beradilar.

"Qo'shiq" asarini tomosha qilar ekansiz tabiatning jozibali ohanglari bilan inson qalbidagi tuyg'ular hamohang jaranglayotganini tinglaganday bo'lasiz. Bahor gullari bilan tushalgan qirlar unga mahliyo bo'lgan qizlarning nafis harakati, tog' chuqqilari shuningdek olisdagi bulutlarning bir – biri bilan o'zviy bog'lanib bo'yoqlarda tasvirlanishi kishini o'ziga sehrlab qo'yadi. "Baxmalda tong" nomli manzarasida esa tabiatda yangilanayotgan holat rassom tomonidan mahoratli ilg'ab olingan. Erta tongdagi harakatning jonlanishi nafaqat odamlar yoki hayvonlarning uyqudan turib astoydil harakatga qilayotganligi aks ettirilib qolmasdan butun yer bag'ridagi barcha borliqning uyg'onayotganligi yaqqol sezilib turadi. Bu asarlar tomoshabinda yaxshi kayfiyat uyg'otish bilan birga maroqli dam olishga yordam beradi. Tabiatga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi va

estetik zavq bahsh etadi. Rassom ijodida manzara janriga bo'lgan qiziqish va yutuqlarini uning datlabki etyutlaridanoq ko'rish mumkin. Rangtasvirchi rassomlar asarlarini badiiy tahlil qilishni, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga o'rgatish, ularning estetik munosabatlarini shakllanishida muhim ahamiyatga ega .

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atimizning taraqqiyotiga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlari yanada rivojlandi. San'atning janrlarida o'nlab rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyati keng tus oldi. Hozir ular hech ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirayotgan avangardizm, romantizm, impressionizm, absraktsionizm va boshqa qator ijodiy yo'nalishlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratmoqdalar. Mamlakatimizda tasviriy san'atning taraqqiyotida O'zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida ijod qilayotgan rassom va haykaltaroshlarning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo'liga o'tdilar, ikkinchidan milliy badiiy an'analarni davom ettirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligini ta'minlash borasida yangi, zamonaviy, ilg'or tasviriy texnologiyalarni qo'llab, muvaffaqiyatli asarlarni yaratmoqdalar.

Manzara va natyurmort janrlarida samarali ijod qilayotganlar orasida L.Salimjonova, A.Mo'minov, S.Abdullayev, I.Haydarov, O. Qozoqov, G. Abduraxmonov, A. Mirsoatov kabi rassomlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Ularning asarlarida Vatan jamoli, uning jahonga mashhur olimu fuqarolari, tabiat ehsonlari ifodalangan bo'lib, bu asarlar yoshlarni Vatanni sevishtga, uni asrab avaylashga, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'paytirishga undaydi, tabiatdagi nafosatdan zavqlanishiga chorlaydi.

O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi - jahon tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston san'ati boy merosga ega. Hozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz butun dunyoga taniqli bo'lib qolgan. Dekorativ-amaliy san'atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Rassomlarimiz ijodi nafaqatgina mustaqil O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'z obro'-e'tiboriga ega.

## 1-bob bo'yicha xulosa

Barkamol insonni tarbiyalashda tasviriy san'at alohida ahamiyatga ega. Manzarachi musavvirlar o'z asarlarida ifodalagan obrazlar orqali tabiatni sevishga, e'zozlashga va bu go'zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara faqatgina tabiat go'zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g'oya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor – musavvir har doim tabiatni sinchikovlik bilan o'rganmog'i va tafakkurini o'stirib bormofi zarur.

Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari xam ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda moxirdirlar. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, xayolan ifodalangan bo'ladi.

Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va uning jamiyati uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. Shuningdek, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallar beribgina qolmay, yoshlarning eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur tasavvurlarini rivojlantiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida tasviriy san'atning manzara janri haqida umumiy ma'lumotlarni o'rgatishning ahamiyati kattadir. Shu sababli malakaviy bitiruv ishining yozma qismini 1-bobida tasviriy san'atning manzara janri haqida umumiy ma'lumotlar, manzara janri haqida tushuncha va unda kompozitsiyaning tutgan o'rni, manzara janrida rasm ishlashda badiiy materiallardan foydalanish, tasviriy san'at janrlarida ishlangan rangtasvir asarlaridan badiiy tahlil qilishga harakat qilindi.

## **II bob. Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm chizish va uni o'qitishning shakl va usullari.**

### **2.1. “Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlashda xomaki rasm va rangli ranglavhalar ishlashning zaruriyati.**

Rassomlar tomonidan yaratilgan san'at asarlarini ko'rganimizda, ijodkorning peshona teri, qalb qo'ri, mehrining tafti bilan yaratilgan serjilo asarlaridan tasirlanamiz. Tasvirlash sirlarini qanday o'zlashtirgani bilan qiziqamiz. Imkoni bo'lsa bunday mahorat bilan chizilgan tasviriy san'at asarlarini qo'lga kiritish istagi ham paydo bo'ladi. Ayrim rassomlikni kasb qilmaganlarning ko'nglidan ham, shunday rasm chiza olish ishtiyoqi, yoki "men ham shunday rasm chiza olsaydim" degan fikrlar paydo bo'lishi tabiiy. Har bir inson tug'ilib voyaga yetar ekan, unda qaysidir bir kasbga nisbatan qobiliyati, qiziqishi, iste'dodi, talanti, iqtidori bo'ladi. Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlar orasida tasviriy san'atga qiziqishi yuqori bo'lgan, tasviriy san'atni jon dilidan sevuvchi ulkan maqsadlar bilan barakat qiladigan yoshlar talaygina. Xuddi shunday tasvirlash sirlarini o'rganishga ishtiyoqi baland yoshlarning qiziqish va intilishlarini vaqtida ilg'ab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishning ahamiyati kattadir.

Mening qishlog'im mavzusida tasvirlashni o'rganishda xomaki rasmlar va ranglavhalar ishlashning o'ziga xos o'rni bor. Rasm chizishni mukammal o'rganmoqchi bo'lganlar xomaki rasmlar ishlamasdan puxta rasm chizishni o'rgana olmaydi. Xomaki rasmlarni muntazam ravishda ishlamaydigan o'quvchida chizgan rasmida nuqsonlar ko'pligi sababli o'zi ishlayotgan tasviriga nisbatan sovuqqonlik paydo bo'ladi. Rasm chizishni o'rganishda xomaki rasm ishlashdan o'rinli foydalanish rasm chizish qobiliyatini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatda chiziladigan amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik bo'ladi. O'quvchilarni amaliy mashg'ulotga tayyorlash uchun ularni avvaliga bir oz muddat yengil xomaki rasmlar ishlash mashqlarini bajartirib olish kerak. Shunda rasm ishlovchilar asosiy tasvirlash mashqlarini bajarish uchun tayyor bo'ladi. Ushbu tayyorlikni bajarmaslik yoki unga e'tibor bermaslik rasm ishlash bosqichlarini sifatsiz

borishiga va ishlangan tasviridan o'quvchining o'zini ham ko'ngli to'lmasligiga sabab bo'ladi. Xomaki rasm va uning ahamiyati haqida tadqiqotchi B.Boymetov o'zining "Qalamtasvir" kitobida shunday yozadi: "Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo bo'lishi mumkin.

Xomaki rasm - bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi".

O'quvchining xomaki rasmlarni o'z vaqtida bajarmasdan yurishi unga ancha qiyinchiliklar olib keladi. Rasm chizish jarayoni samarasiz kechadi. Undagi chiziqlar shakllar o'ylagan natijani bermaydi. Qalamtasvirda ish bajarish jarayonida o'chirgichdan me'yoridan ortiq foydalanish, chizilyotgan tasvirni qayta-qayta o'chirish natijasida qog'oz titiladi va kirlanadi. Ma'lum bir vaqt oralig'ida bajariladigan rasm chizish jarayoniga har qancha vaqt sarflansada, ish beo'xshov bo'lib qolaveradi. Bu jarayonga boshqacha nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, o'quvchi doimo o'z ustida ishlasa homaki rasm va qalamchizgilarni muntazam bajarib borsa, to'g'ri bo'ladi. Shuningdek amaliy mashg'ulot darslarida yangi chiziladigan naturadan rasm chizish avvalida xomaki rasm ishlashdan boshlasa, ish jarayoni ijobiy bo'ladi. Bunda o'ylangan maqsad, chiziqlar, rasm chizish bosqichlari, o'z o'rnida jonlanaveradi. Shunda o'quvchi har bir chiziqni qiynalmasdan topaveradi. O'chirgichdan ham kam foydalanadi, natijada qog'oz deyarli titilmaydi va kirlanmaydi. Bu esa ishning sifatli va samaradorli chiqishiga olib keladi. Ayniqsa tajribalar shuni ko'rsatadiki, qoralama va qalamchizgilarni muntazam ravishda bajarib yurgan o'quvchilar rasm ishlash jarayonida ishni davom ettirilmagan qiyinlab, qolmaydi.

Mening qishlog'im mavzusida rasm ishlash jarayonining ma'lum bosqichida o'quvchi chizishdan to'xtab qolishi yani ishni qanday davom ettirishni bilmay qolish undagi kamchiliklarni ko'ra olmay qolish holatlari uchramaydi. Yana



shunga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak bu o'quvchilarda o'z ustida muntazam ishlagani tufayli, bilim, ko'nikma, malakalar shakllanib boradi. Buning natijasida chizayotgan rasmiga qancha vaqt ajratsa shunchalik jilolanib-jonlanib boraveradi.

Rassom tabiatning barcha go'zalliklarini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm chizish o'quvchini yordamchi chiziqlar, o'q chizig'i, konstruktiv asoslar yordamida tasvirlashga majbur etadi. O'quvchi davomli o'quv rasmida asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvirlash qonuniyatlari va qoidalariga qaratadi. Dars jarayonida rasm chizishda o'quvchi bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvda amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm turli yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasmi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish uchun chiziladi. Ijodiy rasm esa, olingan bilim va ko'nikmadan badiiy obraz yaratish uchun chiziladi. Shuningdek, o'quvchi avval olgan bilim va malakasi asosida yangilik yaratadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quv rasmining ijodiy jihati ham bor. Xomaki rasm ham olingan bilim va malaka asosida yaratiladi. Xomaki rasmda o'quvchidan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi.

Xomaki rasmlar haqida gapirilganda ularning vazifasi, maqsad va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab olish kerak

O'tmishdagi buyuk rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlari ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan dars jarayonida rasm chizishda xomaki rasmlardan ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsad ko'zlanadi: maqsad avval olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quvchi mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish - tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm - avval olingan bilim asosida natura bilan buyum haqida mantiqiy fikrlashdir. O'quvchi xomaki rasm va rangli ranglavha chizish davomida ushbu natura, uning shakl qurilishi, konstruktiv tuzilishi, rang xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zaxirasidan foydalanadi.

Tabiat qo'ynida o'quvchilar aynan xomaki rasm chizishda o'quv

mashg'ulotlarining eng ko'p mahsuldorligiga erishadilar. Bunda ular ham naturani o'rganish, ham tasvirlashning butun texnik vositalaridan foydalana bilishni namoyon etadilar.

O'quvchi natura haqida ma'lum ma'lumotga ega bo'lgandagina xomaki rasm va rangli ranglavha chizish foydalidir. Aniq maqsad bo'lmasdan xomaki rasm yoki ranglavhalar chizaverish o'quvchini ijodan bezdirib qo'yishi mumkin.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz bu ish samarasiz bo'ladi. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirishni, ma'lum bir uslubiy bosqichlarni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ancha yengil, yuqori sinf o'quvchilariga esa murakkab o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa xomaki rasm va chizgilarda asosiy e'tiborni xarakterni ochishga, kishining obrazli xarakteristikasini ko'rsatishga qaratiladi.

Xomaki rasm ustida muntazam ishlash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkoniyani beradi. Birorta rassom yo'qki, xomaki rasm chizish uchun maxsus albom ko'tarib yurmagan bo'lsin. O'tmishdagi mashhur rassomlar o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berganlar. Italiya rassomi Chennino Chennini o'zining "Rangtasvir haqida asar" kitobida shunday yozgan edi: *Doimo, biror kunni kanda qilmay, biror-bir narsaning rasmini chiz; bu senga juda katta foyda keltiradi.*

Mening qishlog'im mavzusida uzoq muddatli rangtasvir amaliy mashqlarini bajarishda, qalamtasvirda homaki rasmlar ishlash kabi rangtasvirda ham rangli ranglavhalar ishlab turishning ahamiyati kattadir. Rangtasvir darslarida o'quvchiga uyga vazifa qilib rangli ranglavhalar bajarib kelish topshiriladi. Ayrim o'quvchilar tasvirlashni yaxshi o'zlashtirishda rangli ranglavhalar ishlasning ahamiyati yo'q deb tushunadilar. Yaxshi rasm chizish uchun tasviriy san'at amaliy mashg'ulot darslarida chizgan rasmlari yetarli deb o'ylaydilar. Ana shuning uchun ham ular amaliy mashg'ulot darslarida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Ishning ma'lum bir bosqichiga yetkazganlaridan so'ng xarchand urunmasinlar rasm chizishni qanday davom ettirishni bilmay boshi qotadi. Ustozlar tomonidan berilgan

tavsiyalarga amal qilmaslik mana shunday qiyinchiliklarga, kerak bo'lsa o'zi ishlayotgan rasmdan ko'ngli to'lmasligiga olib keladi. Rangtasvirda yaxshi natijalarga erishish uchun ma'lum tartib qoidalarga rioya qilgan holda uzluksiz mehnat qilish bo'lajak rassomdan talab qilinadi.

Rangli ranglovhalarni muntazam bajarib borish rangtasvir asarlarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Rangtasvir - xaqiqiy hayotni aks ettirib, tomoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan biridir.

Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq , tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzluksiz bo'yoq qatlamini hosil qiluvchi bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoki akvarel rangtasvirida qog'ozda bo'yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzluksizligiga ta'sir qilmaydi, chunki bo'yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi.

Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko'riladi. Rangtasvir uchun zarur bo'lgan rangni rassom palitrada aralashtirib topadi, keyin bu bo'yoq kartina tekisligida rangga aylanadi. Bu yerda u rang tartibi - koloritni yaratadi. Ranglar aralashmasiga qarab u issiq va sovuq, quvnoq va g'amgin, tinch va harakatli, yorqin va to'q bo'ladi. Naturadagi rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni xal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rangtasvirda quydagi asosiy masalalarni xal etish zarur:

- Umumiy tus va rang xolatlari va natura bo'yoqlarning bir-birga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;
- Katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning «cho'zilishi», aloxida byumlarning xajmi shakllarining batafsil rangli qayta ishlanishi;
- Butun tasvirning umumiyliigi, yaxlitligi xamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish. Bu masalalarning xar biri nima bilan yakunlanishi ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Tasvirlashning to'liq rangtasviri qurilishi, naturaning asosiy qismlari oralig'idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Natyumortda ular fon, natura qo'yilmasida stol yuzasi va buyumlar xisoblanadi. Manzarada esa-osmon oralig'idagi yer yuzasi va daryodagi suv, oldingi, o'rta va orqa oraliqdagi ko'rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) «ranglavha»da noto'g'ri tasvirlansa, manzaradagi obektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo'laklari ustida xar qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo'lmaydi. Qalamtasvirni ishlashda xam taxliliy masala bajariladi: dastlab buyumning «konstruktiv»-ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko'radi.

Rangtasvirda zamonaviy tabiat mavzusida ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 minut vaqt sarflab, naturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q dog' qayerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar qanday ekanligini topish kerak.

Avvalo asosiy ob'ekt oralig'idagi tus farqlarini topish muhim: Tabiatda, masalan, devor yuzasidagi fon eshik, deraza va turli shaklarga tushayotgan yorug'lik va boshqalar. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak.

Buyumni barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumning har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Havaskor rassom tabiat lavhasini tasvirlayotganda old ko'rinishidan boshlashi ma'qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko'rinishdan qo'ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishga bo'yoqlarning kuchi yetmaydi. Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar

moddiyligini his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq - hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialligi munosabtalarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon tarafdagi tuslar to'g'ri topilmasa, qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi. Tabiatni tasvirlashda manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni "tikilib qarash" kerak. Navbatma-navbat naturaga ham, ranglavhaga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiya qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvirda ishlash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom, naturani obrazli ko'rinishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi. Shu o'rinda har bir bo'lajak rassom yoki tasviriy san'atni o'rganuvchi tasvirlash jarayonini narsani o'ziga qarab chizishdan boshlashi, bundan ko'proq foydalanishi lozimligi hamda ushbu usul tasavvur qilish qobiliyatini o'stirishda samarali natijalarga olib keladi. Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Ranglavha ishlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan suvbo'yoq surtmalaridan keng foydalanish mumkin. Rang qatlamalarining tabiiy notekisligi, bo'yoqning tasvir shakliga mos ravishda qo'yilishi, suvbo'yoq go'zalligini yanada ko'proq namoyon qiladi. Quriy boshlagan rang qatlami bo'ylab "quriq" mo'yqalam usulida chiziqlar yuritib, shakl ma'nodorligini yanada oshirish mumkin. Ranglavhada fazoni bir bo'yoq rangini ikkinchi rangga qo'yib yuborish yo'li bilan tasvirlash mumkin. Bunda ranglarning

bir – birlari bilan nozik birikuvlari, uzluksiz tekis kirishuvlarini keltirib chiqaradi. To'q rang bilan yengil surkama jilolar yordamida ranglavhaning rang yechimi keltirib chiqariladi. Agar ranglavha ma'nosi muhim mavzuga mo'ljallangan bo'lsa, tasvirni "quruq" mo'yqalam yordamida aniqlashtirish, biror joyni kontrastlashtirish, nimanidir kuchaytirish va nimadandir voz kechish mumkin. Tabiat manzara ta'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda ertish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki soviq, ochroq yoki to'groq, yaqqol yoki umumlashgan tarzida bajarish mumkin. Jonli tabiatni his qilish, uning g'oyat ko'rkamligini ilg'ay olish, shuningdek qiziquvchanlik har bir ranglavha yechimiga mezon b'ladi. Chunonchi, tabiat har qachon ijodiy izlanishlar, go'lallikni his qilib didini o'stirish manbai bo'lib kelgan.

O'ral Tansiqboyev yaratgan manzara asarlari, nafaqat O'zbekistonda, balki jahon manzara san'ati durdonalri qatoridan o'rin olgan.

Mashhur rassomlarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishsak, ular tasviriy san'at sirlarini o'rganishda va bo'lajak asarlarini yaratishda xomaki rasmlar va rangli ranglavhalar chizishdan unumli foydalanganliklarini guvohi bo'lamiz. Shunday rassomlardan Leonardo Da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryullov; O'zbekistonlik rassomlardan O'ral Tansiqbayev Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev va boshqa rassomlarni aytish mumkin.

Tasviriy san'atga rasm chizishga qiziqayotgan yoshlar ustozlar o'rgatayotgan jamiki chizish qoidalarini mukammal o'rganishlari uchun ular albatta juda ko'p xomaki rasm va ranglavxalar ishlashi kerak. Uztozlarning o'gitlarga amal qilish — tasvirlashning asosiy qonun-qoidalarini puxta egallash omilidir. Albatta bu natijalarga erishish uchun o'z vaqtida mehnat qilishdan qochmaslik kerak bo'ladi.

## **2.2. Umumta'lim maktablari tasviriy san'at darslarida «Mening qishlog'im» mavzusida rasm ishlash metodikasi**

«Uslub» deganda tasviriy san'atda rasmi chiziladigan obyekt, naturani yoki tahlil etiladigan san'at asarini talabalarga tushuntirish yoki uning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etib berishni yoki o'rganishning yo'l-yo'riqlari, uslublari tushuniladi.

«Pedagogika» fanidan shu narsa ma'lumki, «metodika»— ifoda etish so'zidan olingan bo'lib, o'rgatiladigan o'quv materialini talabalarga o'rgatish, o'qitish va o'zlashtirishning nazariy va amaliy asosi — faoliyati yoki usulidir.

Xozirgi kunimizda mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o'qitish bilan bog'lanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantiqiy vazifalarni yechishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmed va hodisalardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko'p dalillar ichidan tipiklarini ko'rsata olish, shakllangan tushunchalardan to'g'ri foydalanish, qalamtasvir, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi.

Talabalar ufq chizig'i, chiziqlar va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Qalamtasvirda ishlangan rasmlarda esa chiziqli va havo perspektivasi, naturalar shaklining perspektiv qisqarishi kuzatiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarining samaradorligini ko'p jihatdan talabalar faolyatini nazorat qilish hamda ularning ish natijalarini baholashga bog'liq. U o'z o'rnida birinchidan, o'qituvchi faolyatini faollashtirishga, ikkinchidan talabalar tomonidan DTS materillarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek u talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning faolyatlaridagi yutuq, kamchilik va nuqsonlarni aniqlashga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda talabalarning ishlari faollashadi. Bu o'rinda o'qituvchi o'qitish metodikasidan samarali foydalanishi ahamiyati katta .

Mashg'ulotning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish esa o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham bog'liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy

yo'llar bilan oddiydan murakabga borish prinsipida ma'lum ketma –ketilikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq qilib aytganda uni o'qitish metodikasi to'g'ri tanlanganda talabalar ko'zda tutilgan o'quv materialini puxta o'zlashtiradilar va ularda o'zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo'ladi.

Pedagogik nazariyada uch xil metod bo'lib, asosan nutqiy namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o'z o'rnida mayda metodlarga ham bo'linadi. Masalan: nutqiy metod, hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash va boshqa shu kabi metodlardan tashkil topadi.

Ko'rgazmali metod esa kuzatish, namoyish etish kabilardan amaliy ish esa mashq rasm ishlash, ijodiy ish, o'yin kabi metodlarga bo'linadi.

O'qitish uslublaridan o'qitish metodi tashkil topadi. Masalan: namoyish etish metodi asosida o'qituvchi mashg'ulot o'tkazganda u ekranga san'at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushintradi. Bu jarayonda o'qituvchi suratdagi biror shaklini yirik qilib ko'rsatishi usul hisoblanadi. Shu o'rinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol –javob o'tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O'qituvchi o'qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u qalamtasvir, rangshunoslik, perspektiva, yorug' soya, kompozitsiya qonuniyatlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki ta'viriy san'at va amaliy san'atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o'rgatganda tasviriy san'at, va amaliy san'atning u yoki bu faoliyat turini o'qitganda o'qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O'qitishda talabalarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash lozim. O'qitishni faollashtirish uchun talabalarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega.



Ta'lim –tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi. U doimo taraqqiy etadi. Bunda o'qituvchining tajribasi albatta katta rol o'ynaydi. Shunday ekan pedagogik amaliyotda shart–sharoitlarni hisobga olib shakllangan metodika asosida ham o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosida ham foydalana borish lozim.

Tasviriy san'atda qalamtasvir darslarining muvafaqiyati ko'p jihatdan talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini shakllantrish va doimiy ravishda uni oshirib borishga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi har doim o'z ustida muntazam ishlab borishi kerak bo'ladi. Har bir darsga imkoni boricha oz bo'lsada yangilik kiritib borilsa, yillar davomida kichik - kichik tajribalardan katta-katta yutuqlarga o'qituvchi erishishi mumkin. Har darsda o'qituvchi bir xil metod va usullarda dars o'tishi natijasida dars samaradorligi pasayib boraveradi. Shuningdek talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi ham pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunimizda talaba yoshlarimizning zehni juda o'tkir. Dars o'tayotgan ustozning qanchalik dars o'tish mahorati yuqori ekanligi va bilim doirasi keng ekanligiga alohida etibor beradilar.

Tasviriy san'atdan bir soatlik dars ishlanmasi

**Mavzu: Mening qishlog'im mavzusida rasm ishlash.**

***Darsning maqsadi:***

a) O'quvchilarni "Mening qishlog'im" mavzusi asosida rasm ishlashga oid bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishtirish. Turli tabiat ko'rinishlariga oid kompozitsiya ishlash, tus, badiiy tasvirlash, tasvir uyg'unligini hosil qilish.

b). O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida va tabiatimizga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash.

v) Tasviriy san'atga oid bilimlarni oshirish va rasm chizishga nisbatan qiziqishini rivojlantirish

**Darsning jihozi:**

a) O'qituvchi uchun: rassom Rashid Temurovning «Bibixonim hovlisida bahor», Asliddin Isayevning «Buyuk ipak yo'li» shuningdek rang tasvirchi rassomlar tomonidan, tasvirlangan asarlarning reproduksiyasi, o'quvchilar chizgan sura'tlardan namunalar, fotosuratlar va boshqalar.

b) O'quvchilar uchun: rasm daftar, qalam, akvarel yoki guash bo'yoq, mo'y qalam, toza suv, latta va boshqalar.

### **Darsning rejasi:**

Tashkiliy qism:	2 - 3 daqiqa
O'tilgan darsni so'rab baholash	7 – 10 daqiqa
Yangi mavzuning bayoni	8 – 15 daqiqa
O'quvchilarni mustaqil ishlari	15 – 25 daqiqa
Uyga vazifa va darsni mustahkamlash	3- 4 daqiqa

### **Darsning borishi:**

Darsning tashkiliy qismi tugagandan so'ng uy vazifalarni baholab bo'lgach quyidagicha dars davom ettiriladi.

Biz bilamizki har bir xalqning o'z milliy uylari va qishloqlari bor. Vatanimizning ko'pchilik aholisi ham qishloqlarda yashaydi. Hozirgi kunimizda shaharlarimiz kabi qishloqlardagi kishilar hayoti yanada farovon bo'lib bormoqda. Bunga misol qilib turli bunyodkorlik ishlarini aytib o'tishimiz mumkin. Qurilayotgan aholi yashashi uchun turar joylar, namunaviy uylar, Kasb hunar kollejlari, zamonaviy umum ta'lim maktablari va boshqalarni ko'rganimizda odamning ko'zi quvnaydi. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan turli rusumdagi avtomobillar chekka-chekka qishloqlarga ham yetib borgan. Xozirgi kunimizda qishloqlarda bo'layotgan to'ylar, to'ylardagi dasturhonimizning nozi-nematlar bilan to'lib toshganligi halqimizning asoyishta farovon hayot kechiryotganidan dalolat beradi.

Qo'yinki qishloq hayotini "Mening qishlog'im" mavzusida tasvirlashga uni ifoda etishga kuylashga qancha harakat qilsak kamlik qiladi.

Bu yil bahor faslida yo'ng'ir ko'p yog'ganligi sababli qishloqlarda, chekka qishloqlarda, ayniqsa tog'lardagi qishloqlarda tabiat shunchalik churoyli bo'ldiki buni so'z bilan ta'riflash qiyin. Bunga sabab yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi uchun turli o'simliklar barq urub chaman bo'lib gulladi. Bunday hush havo, hush manzara joylardan odamlar qancha yashasa shuncha yashagisi keladi. Rassomlar esa tabiat go'zalligini tasvirlashga shoshiladilar.

Manzara tasviriy san'atning alohida turi bo'lib rassomlar ijodida katta rol o'ynaydi. Manzarachi rassomlar qishloqlarni tabiatga qo'shib tasvirlab kelajak avlodga tarixidan xabar beradilar. Qishloqlar ko'rinishlari rassomlar tomonidan tasvirlanib kelingan. Bu asarlar vatanparvarlik ruhi bilan yaratilgan. Bugungi tinch osoyishta farovon hayotimizni tasvirlash, bunyodkorlik ishlarini tasvirlash, qishloqlarimizni tasvirlash, qo'yinki Vatanni tasvirlash uni kuylash eng katta baxtdir.

Mana bu siz ko'rib turgan suratlar sizga o'xshagan o'quvchilarning chizgan shu mavzudagi suratlari, siz ham shular kabi ijod qilib chizishingiz kerak bo'ladi. Rangtasvirda tasvirlash uchun turli – xil ranglardan foydalaniladi. Agarda siz grizayl usulidan foydalanmoqchi bo'lsangiz, unda faqat bitta rangda ishlash tavsiya etiladi, qora, jigar, ko'k bo'yoqlarning birini tanlab olasiz va shu rangdan foydalanib tasvir ishlaysiz. Faqat bitta rangdan foydalanib rasm ishlash rangtasvirning grizayl texnikasiga xos. Rangtasvirda "Mening qishlog'im" mavzusini chizish uchun avvalo qog'oz varag'iga, tasvirni to'la joylashtirib olish lozim. Qog'ozning hech qayeri ochiq bo'yoqsiz qoldirilmaydi. Qog'ozda ufq chizig'i oldindagi narsalarning o'z o'rnida berilishi, zamonaviy qurilishlar, eski binolar va xokozalar uyg'unlashib borishi mumkin. Daraxtlar, uylar, ko'chsadagi gullarning ham shular jumlasidandir.

Suratni men besh bosqichda ishlab ko'rsataman. Lekin bularning hammasi bir joyda qilib, siz o'zingiz kompozitsiya yaratasiz. Mana bu suratni sizga ko'rsatish uchun besh bosqichli ko'rgazma qilingan. Qarang birinchi bosqich - faqatgina qog'ozga to'g'ri joylashtirish, har bir katta detallarni o'z o'rnini topib qo'yish bilan tugaydi.

Ikkinchi bosqichda - barcha chizilishi lozim bo'lgan narsalarni aniq qilib ranglashga tayyorlanadi. Bunda uzoqdagi daraxtlar, tog'lar, imoratlar, odamlar va boshqalarning yorug' soya joylari ham aniqlanadi.

Uchinchi bosqich - kompozitsiyani ranglashga o'tamiz ya'ni, eng birinchi umumiy bo'yoqlarni berib olamiz. Bunda osmon, tog'lar, yer, imoratlar, daraxt va boshqa narsalar ketma – ketligida ranglanadi. Unutmangki ranglar yuqoridan pastga katta yuzalarni ranglashdan boshlanadi. Bunda ham bizga yaqin turgan joylar rangi to'qroq uzoqlashgan sayin, och tusli bo'lib boradi. Shuni rang perspektivasi deb ataymiz.

To'rtinchi bosqich - har bir detalning aniqlashtirilishiga e'tibor qaratamiz. Ranglar jilosi, tabiat bilan uyg'unlashib boradi. Vaqtning aniqligi, soya, yorug' bilan osmonning rangi, daraxtlarning rangi va hokozalar aniq ishlanishi bilan surat go'zal ko'rinish ola boshlaydi. Bo'yoqni tozaligini saqlash uchun suvni tez – tez almashtirib turish ham kerak. Politrani doimo esdan chiqarmang. Chunki rang topishda u katta yordam beradi.

Beshinchi bosqich – suratning eng mayda soya, oldinda ko'rinib turgan detallarni aniqlashtiramiz. Gullar, toshlar, o't-o'lanlar, yaqindagi daraxt shoxlari, binolarning naqshlari, osmonda uchib yurgan qushlar, odamlar va hokozalar ranglanadi ish yakuniy bosqichda ishlanadi.

Bo'yoqlarda ranglab tugatgach o'quvchilarni ishi quritilib hammaga ko'rinarli qilib doskaga qo'yiladi va tahlil qilinadi. Yutuqlar va kamchiliklar to'g'risida o'quvchilar bilan suhbat olib boriladi. Dars jarayonida tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

Uyga vazifa qilib qo'shimcha shu kabi suratlar ishlash va rasmlardan yig'ib kelish topshiriladi.

## Umumiy xulosa

Vatanimiz mustaqillika erishgach boshqa sohalar kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu davr, qisqa davr bo'lsada, tasviriy san'at tarixida ulkan muvafaqqiyatlarga ershildi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilganlar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassomlarni yetkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboyev, Ilxom Jabborov, Javlon Umarbekov, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Hakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullayev, G'ofur Abduraxmonov Ortiqali Qozoqov Nodira Oripovalar alohida mavqega ega. Ularning asarlarida Vatan jamoli, uning jahonga mashhur olimu fuqarolari, tabiat ehsonlari ifodalangan bo'lib, bu asarlar yoshlarni Vatanni sevishga, uni asrab avaylashga, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'paytirishga undaydi, tabiatdagi nafosatdan zavqlanishiga chorlaydi.

Barkamol insonni tarbiyalashda tasviriy san'at alohida ahamiyatga ega. Manzarachi musavvirlar o'z asarlarida ifodalagan obrazlar orqali tabiatni sevishga, e'zozlashga va bu go'zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara faqatgina tabiat go'zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g'oya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor – musavvir har doim tabiatni sinchikovlik bilan o'rganmog'i va tafakkurini o'stirib bormog'i zarur.

Rangtasvir tasviriy san'atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi. Rangtasvirchi musavvirlar mato, qog'oz, karton, yog'och va shu kabi tekis yuzalarda olam go'zalligini ranglar jilosida aks ettiradilar. Rangtasvirda manzara tomoshabinga juda katta badiiy estetik ta'sir etib u nafosat olamiga etaklaydi. Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks

ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqyealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari xam ifodalanadi. Rangtasvir san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham muayan tayyorgarlikni talab qiladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, shodlik va quvonch bag'ishlaydi. Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabait obrazini yaratadi.

O'quchilar tabiat ko'rinishlarini tasvirlashda ufq chizig'i, chiziqlar va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, binolar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Me'morchilikda ishlangan rasmlarda esa chiziqli va havo perspektivasi, binolar shaklining perspektiv qisqarishi kuzatiladi. O'quvchilar tasviriy san'at mashg'ulotlarida "Mening qishlog'im" mavzusida rasm ishlaganlarida tabiatning turli shakllarini ko'radilar, uning katta-kichikligini, shaklini, shaklidagi xunuk va chiroyli elementlarini aniqlaydilar, narsa shaklini idrok etib, rang va tusini o'rganishadi. Tabiat ko'rinishlarini idrok etish bilan birga, uning tasvirini yaratish tahlilini o'rganib, ong faoliyati asosida manzara ko'rinishini tasvirga aylantirib, qog'oz yuziga joylashtirish bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Shundan so'ng tabiat ko'rinishi tasvirini qog'oz yuzasiga tushiriladi. Bu mashg'ulotlar davomida diqqat, idrok, xotira, tasavvur, did emotsiya rivojlanib, rasm chizish malakasi ortadi. Chunki bu mashg'ulotlarda o'quvchi manzarani kuzatadi va ko'radi, uni ong faoliyatida tahlil qiladi, rang tuslarini shakllar ichidan topib, uni qog'ozga tushiradi.

Manzara ustida ishlash, avvalo, rassom ko'ngliga yoqib qolgan va uning ruhi, kayfiyati, maqsadiga mos tushadigan ko'rinish, lavha, holatlarni tanlashdan boshlanadi. Bu jarayonda rassomning o'z oldiga qo'yilgan maqsadini aniqlab olish va shunga binoan etyudlar ishlab, bular orasida yaratilajak manzara - kartina ustida ijod qilish birinchi o'ringa chiqadi. Manzarachi rassomning shakllanishida ham o'ziga xos sirlar bor. Buning uchun tabiatni sevish, uni ko'zata bilish ayniqsa,

rang – lavhalar ustida ishlay bilish talab qilinadi. Chunki tabiatning har bir kichik bo'lgida butun bir olamga xos mazmun yotadi.

Vatanimizning ko'pchilik aholisi qishloqlarda yashaydi. Hozirgi kunimizda qishloqlardagi kishilar hayoti yanada farovon bo'lib bormoqda. Bunga misol qilib turli bunyodkorlik ishlarini aytib o'tishimiz mumkin. Qurilayotgan aholi yashashi uchun turar joylar, namunaviy uylar, kasb hunar kollejlari, zamonaviy umum ta'lim maktablari va boshqalarni ko'rganimizda odamning ko'zi quvnaydi.

Bu yil bahor faslida yo'ng'ir ko'p yog'ganligi sababli qishloqlarda, ayniqsa tog'lardagi qishloqlarda tabiat shunchalik chiroyli bo'ldiki buni so'z bilan ta'riflash qiyin. Turli o'simliklar barq urub o'sib, chaman bo'lib gulladi. Tabiat go'zallikka burkandi. Bunday holatlarda rassomlar tabiat go'zalligini tasvirlashga shoshiladilar. Bugungi tinch osoyishta farovon hayotimizni tasvirlash, bunyodkorlik ishlarini tasvirlash, qishloqlarimizni tasvirlash, qo'yinki Vatanni tasvirlash uni kuylash eng katta baxtdir.

Bitiruv malakaviy ishini amaliy qismini rangtasvirda ishlash uchun qoralama etyutlar ishlanib, ularning eng yaxshi tomonlari umumiyashtirildi. "Mening qishlog'im" manzarasini 90x60 o'lchamdagi qalin karton qog'azga rangtasvirda moy bo'yoq texnologiyalaridan foydalanilgan tasvirlandi. Ushbu mavzuni atroflicha rangtasvir orqali ochib bera olishga harakat qildik.

Biz yoshlarni bo'lajak o'qituvchilariga ilm sirlarini, tasvirlash sirlarini chuqur va mukammal o'rgatgan barcha ustozlarimizga o'zimizning samimiy minnaddorchiligimizni bildiramiz.

### **Taklif va tavsiyalar**

Maktab tasviriy san'at darslarida "Mening qishlog'im" mavzusida rasm chizish o'quvchilarning ko'rish xotirasi, borliqni idrok etish, go'zallikni his qila bilish, ma'naviy dunyo qarashini kengayishi, mehnat qilish qobiliyatini rivojlanishi, Vatanga muhabbat kabi juda ko'plab ijobiy qobiliyatlarini rivojlanishida xizmat



qiladi.

Bizning ishimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib qo'yidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tamiz.

- Tasviriy san'at fani badiiy tarbiyaning asosini tashkil etadi uni o'qitish orqali o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirish.

- Tasviriy san'atni o'qitishning asosiy maqsadi turli narsalarning tasvirini amaliy holda bajara olishga o'rganish va kompozitsiyalar tuzish.

- "Mening qishlog'im" mavzusida rasm ishlashda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalaridan, tasvirlash qurollaridan o'rinli foydalanish kerak.

- "Mening qishlog'im" mavzusida rangtasvir ishlashda bo'yoqlar texnologiyasidan to'g'ri foydalanish hamda u haqida tushuncha va bilimga ega bo'lish zarur.

- Grizaylda kompozitsiya chizish va bo'yoq bilan ishlashda o'ziga xos "ko'prik" bo'lib, bo'lajak mutaxasislarning, chuqur atroflicha bilim olishlarida osos bo'ladi. Uni rang tasvir darslarida o'rganish muhimdir.


- Tasviriy san'at darslari mashg'ulotlarini tajribali musavvirlar, pedagoglar olib borishini ta'minlash muvafaqiyatlar garovidir. Ana shundagina tasviriy san'atning tur va janrlarida rasm chizish mashg'ulotlari o'zining samarasini beradi.

- Yoshlarga "Mening qishlog'im" manzarasi ko'rinishlarini tasvirlashda estetik idrok etishni o'rgatish, ijodiy qobiliyatini shakllantirish; amaliy rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yoshlarni tabiatga nisbatan yaxshi munosabatni rivojlantirish, jamiyatimiz, davlatimiz istiqboliga hissa qo'shadigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash kerak bo'ladi.


### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008. nashriyoti.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T., "O'zbekiston", 2000.
3. M. Nabiyev. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995
4. N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.
5. S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009
6. O'zbekiston san'ati. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T., 2001.
7. S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996
8. N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997
9. R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009
10. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011
11. Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi.T., "O'zbekiston", 2006
12. P. P. Shabaratov. Miniatura. T. "Iqtisod - moliya" nashriyoti. 2011
13. B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqqa nashriyoti", 2006
14. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. T., 1996
15. B.T. Maxmudov. Dasgohli rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009

16. D. A. Nazilov. Kompozitsiya asoslari. T., “Yangi asr avlodi”, 2009
17. N. Abdullayev San’at tarixi. T., “O’qituvchi”, 1987.
18. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
19. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
20. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
21. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)
22. tdpu-INTERNET. Ped [www.nbgf](http://www.nbgf).




**Rasm chizish stoli va molbrtlari.**




**O'quv ishi. Akvarel bo'yog'ida tabiat ko'rinishi etyudini ishlash.**




**Suv, osmon va yer rang tuslarining yorug'lik nuri o'zgarishiga qarab turli rangda ko'rinishi.**



**Suv bo'yoq, guash, moybo'yoqlarning o'zaro aralashishi.**



**O'. Saidov. "Oqtosh toshlari".**



**B. Boboyev. "Osuda kun".**




**Yu. Tursinnazarov. “Angren tog’lari”.**



**O’quvchilar ishidan namuna. “Bahor”**




O'ral Tansiqboyevning “Mening qo'shig'im” rangtasvir asari.



N.G. Karaxaning “Tog'dagi bug'doyzorlar” asari 1958 y





A.K. Savrasovning “Qora qarg’alar uchib keldi” asari 1871-yil



I. K. Ayvovskiyning “Qora dengiz” asari 1881-yil



I.I. Shishkinning “Bug’doyzor” asari 1878-yil

## Mundarija:

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I bob Tasviriy san’atning manzara janri haqida umumiy ma’lumotlar</b> .....	8
1.1. Adabiyotlat tahlili.....	8
1.2. Manzara janri haqida tushuncha va unda kompozitsiyaning tutgan o’rni.....	12
1.3. Manzara janrida rasm ishlashda badiiy materiallardan foydalanish. ....	21
1.4. Tasviriy san’at janrlarida ishlangan rangtasvir asarlaridan badiiy tahlil qilish.....	29
1-bob bo’yicha xulosa.....	38
<b>II bob. Umumta’lim maktablari tasviriy san’at darslarida «Mening qishlog’im» mavzusida rasm chizish va uni o’qitishning shakl va usullari</b> ...39	
2.1. “Mening qishlog’im” mavzusida rasm ishlashda xomaki rasm va rangli ranglavhalar ishlashning zaruriyati.....	39
2.2. Umumta’lim maktablari tasviriy san’at darslarida «Mening qishlog’im» mavzusida rasm ishlash metodikasi.....	47
<b>Umumiy xulosa:</b> .....	54
<b>Taklif va tavsiyalar:</b> .....	56
<b>Foydalanigan adabiyotlar:</b> .....	58
<b>Ilovalar</b> .....	60



